

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
XORIJIY SHARQ MAMLAKTLARI ADABIYOTI**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**MAVZU: “GENJI MONOGATARI” DA XEYAN DAVRI
AYOLLAR OBRAZI.**

Bajardi: “Arab filologiyasi” ta’lim
yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Bakayeva Nilufar _____
(imzo)

Ilmiy rahbar: “Xorijiy sharq mamlakatlari
adabiyoti” kafedrasida o‘qituvchisi,
o‘qt. Gulyamov I. _____
(imzo)

ANNOTASIYA: Ushbu bitiruv malakaviy ishda “Genji monogatari” qissasii asosida Xeyan davri ayolining jamiyatdagi o‘rnini masalasi ko‘rib chiqiladi. Bu masalani yoritishda Xeyan davrida ravnaq topgan adabiy jarayon haqida batafsil ma’lumot berish, Murasaki Shikibuning yapon adabiyotining rivojiga qo‘shgan hissasi hamda uning ijodiga ijtimoiy muhitning ta’sirini tadqiq etish, “Genji monogatari” asarining mazmun mohiyatini yoritib berish.

Toshkent -2012

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB MURASAKI SHIKIBUNING XEYAN DAVRI ADABIYOTIDA TUTGAN O`RNI(XI-XII ASRLAR)	
1.1. IX-XII asrlar Xeyan davri adabiy jarayoni.....	8
1.2. Murasaki Shikibu hayoti va ijodiy yuli.....	15
1.3 “Genji monogatari” asari mazmun mohiyati.....	20
II BOB “GENJI MONOGATARI” ASARIDA XEYAN AYOLLAR OBRAZI TAHLILI	
2.1 “Yomg`irli tundagi suhbat”da ideal ayol obrazi haqidagi mulohazalar.....	25
2.2. O`rta tabaqa vakili Kiritsubo obrazi.....	34
2.3 Yuqori tabaqa vakili Fujitsubo obrazi.....	36
2.4 Quyi tabaqa vakili Yugao obrazi.....	39
XULOSA	41
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	45
GLOSSARIY	

KIRISH

Adabiyot inson hayotida necha yillardan buyon o`ziga xos o`rin egallab kelmoqda. Shuningdek, u inson ma`naviyatining har tomonlama boyib, sayqallanib borishida asosiy omillardan biri bo`lib xizmat qilmoqda. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta`kidlaganlaridek jamiyat ma`naviyatsiz, ma`naviy-axloqiy qadriyatlarsiz yashay olmaydi. Uni pisand qilmagan jamiyat pirovard oqibatda tanazzulga yuz tutadi¹.

Darhaqiqat, insoniyat yaratgan ma`naviy madaniyat yaxlit butunlikdir. Adabiyot, san`at, din, falsafa kabilarning hammasini bir muazzam daraxtning shoxlari desak, uning ildizi esa xalqning ijodidir, dunyoqarashi fikriy kashfiyotlaridir.

Mustaqillikka erishganimizdan so`ng ilm-fan sohasida turli xildagi ishlar amalga oshirildi. Ushbu jabhalarda to hozirgi kunga qadar erishilgan yutuqlarni sanasak ularning adog`i yo`q. Xususan, Prezidentimiz Islom Abug`anievich Karimovning “adabiyotga e`tibor - ma`naviyatga, kelajakka e`tibor”, nomli risolalarining nashrdan chiqishi ma`naviyatga, uning ajralmas qismi bo`lgan badiiy adabiyotga bo`lgan yuksak e`tiborning yana bir amaliy ifodasidir.

Ushbu risolada boshqa sohalar qatori adabiyot sohasida ham xalqaro aloqalarni kuchaytirish zarurligi „Qaysi mamlakatda bizning adabiyotimiz, qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashadi, xorijdan biz nimalarni o`rganishimiz mumkin. Bugun bu masalalar xalqaro maydonda o`zligimizni namoyon etishda katta ahamiyatga ega ekanligini doimo yodda tutishimiz lozimligi”²ga jiddiy urg`u beriladi. Xalq va millatning ma`naviy, ruhiy va axloqiy qadriyatlarini shakllantiruvchi hamda ta`minlovchi asoslardan biri esa badiiy adabiyotdir. Millat ma`naviyatini yaratuvchi omillardan yana biri turli xalqlar adabiyotlarining o`zaro hamkorligi va o`zaro ta`siri hisoblanadi. Milliy adabiyotlarning bir-biri bilan

¹ “Inson baxt uchun tug`iladi”. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning hikmatli so`zlaridan. Toshkent. Sharq nashriyoti. 1998y.45-46bet

² O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Adabiyotga e`tibor - ma`naviyatga, kelajakka e`tibor” nomli risolasidan. Toshkent. Sharq nashriyoti.

uzviy aloqadorligi va ta'sir jarayonlari uzoq tarixiy an'anaga ega. Boshqa xalqlar bilan do'stona munosabat qilish va ilg'or tomonlarini o'rganish o'zbek xalqi ma'anaviyatiga xos bo'lgan xususiyatdir.

Mavzuning dolzarbligi. Ushbu bitiruv malakaviy ishda Xeyan davri ayollar obrazi "Genji monogatari"³ (源氏物語 – "Genji haqidagi hikoya")⁴ qissasii asosida ko'rib chiqiladi.

Yaponiyada qonli ichki urushlar davridan oldin tinchlik-osoyishtalik davri bo'lmish Xeyan⁵ davri (IX-XII) o'zining jamiyati, ijtimoiy muhiti, o'sha davr dunyosi, madaniyati, adabiyoti bilan ajralib turgan. Xeyan davrida ayollar e'tiborning markazi bo'lib, u eng aqlli, hammaga o'rnak bo'luvchi sifatida namoyon bo'lgan.

Biz bitiruv malakaviy ishimizda yapon shoirasi Murasaki Shikibuning „Genji monogatari“ asariga murojaat etganimiz bejiz emas. Genji monogatarida ayol va sevgi asosiy bosh mavzu hisoblanib, u eng chiroyli va bo'yoqdor so'zlar bilan ifodalangan.

“Genji monogatari” asari XX asrning yirik rus yaponshunos olimlari N.I.Konrad⁶, Goreglyad.V.N⁷, T.L.Sokolova-Delyusina⁸ tomonidan o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida Genji monogatari asariga etnik, estetik, tarixiy va badiiy jihatdan yondashilib, ammo undagi obrazlar chuqur yoritilmagan. Mazkur malakaviy ish ayni shu olimlarning qarashlariga asoslanadi va asosiy e'tibor o'zbek adabiyotshunoslari va oddiy kitobxon uchun qiziq bo'lgan Xeyan davri

³ Malakaviy ishda Genji monogatari qissasi ba'zi hollarda roman deb ham yuritiladi.

⁴源氏物語 – so'zma-so'z tarjima qilinganda Genji haqida hikoya degan ma'noni bildiradi. Ushbu hikoya hajmi jihatidan katta bo'lganligi sababli, balki, qissa yoki doston, eposga deyish mumkin.

⁵ Конрад Н.И. Древняя история Японии. – Конрад Н.И. Избранный труды. История. М., 1974. С.73.

⁶ Н.И.Конрад Японская литература в образцах и очерках Том I.Издательство Москва "Наука"1991, "Запад и Восток". Статьи М.: Наука, 1966.

⁷ В.Н Горегляд Японская литература VIII-XVI вв. Начало и развитие традиций. Санкт-Петербург, 1997 стр-122-255

⁸ Мурашики Сикибу. Повесть о Гэндзи. Приложение /Вступ. ст., пер. с яп. Т.Л. Соколовой-Делюсиной. – М., 1992

ayollarining o`ziga xos go`zal ifodalanishi va muallifning o`ziga xos yondashuvini tadqiq etishga qaratiladi.

“Genji monogatari” romanida turli qatlamdagi ayollar obrazi ishtirok etgan bo`lib, ularning jamiyatdagi o`rni, hayot tarzi, ta`lim-tarbiyalari haqidagi ma`lumotlar to`liq bayon etilgan. Bu qissani o`qigan kitobxon bevosita Xeyan davri ayollarining yashash tarzlari, ularning ko`rinishi, estetikasi haqida chuqur tassavvurga ega bo`la oladi.⁹

“Genji monogatari” romani faqatgina uzoq o`tmishda yaratilgan kitob bo`libgina qolmay, Yapon mumtoz adabiyotining tom ma`nodagi ustuni deya tan olingan. Ushbu asarda kelajakdagi yapon madaniyati va san`atining ilk ko`rinishlari berilgan bo`lib, hozirgi kundagi san`atshunoslar uchun bebaho asar deya olamiz.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi Genji monogatari qissasida ishtirok etkan obrazlarni tahlil qilishga asosiy e`tibor qaratilgan bo`lib hamda Xeyan davri ayolining jamiyatdagi o`rnini aniqlashga qaratiladi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- Xeyan davrida ravnaq topgan adabiy jarayon haqida batafsil ma`lumot berish;

- Murasaki Shikibuning yapon adabiyotining rivojiga qo`shgan hissasi hamda uning ijodiga ijtimoiy muhitning ta`sirini tadqiq etish;

- “Genji monogatari” asarining mazmun mohiyatini yoritib berish;

- “Genji monogatari” asarida bir nechta ayol obrazlarini tahlil qilgan holda asarda chuqur aks ettirilgan Xeyan davri zodagon, o`rtahol hamda quyi tabaqadagi

⁹岡崎 智子「平安時代の理想の女性像について—『源氏物語』から—」2006年。 Okazaki Tomokoning Xeyan davri ideal ayol obrazi nomli ilmiy ishi.2006-yil

ayollarining yashash tarzi, kiyinishi, tarbiyasi, ularning tashqi go`zalligi, shu bilan birga ichki go`zalligi, bundan tashqari Xeyan davrida ideal ayollar obrazini tadqiq qilishdan iborat.

Ushbu tadqiqotning maqsadi qo`yilgan masalalarni yoritish va bilimlarimiz doirasini kengaytirishdan iboratdir.

Mavzuning o`rganilish darajasi: Genji monogatari qissasi XX asrning yirik rus yaponshunos olimlari Nikolay Iosifovich Konrad, Goreglyad.V.N, Sokolova-Delyusina, shuningdek, To`rayeva D.B kabilar tomonidan o`rganilgan. Ularning tadqiqotlarini o`rganar ekanmiz, Xeyan davri hamda “Genji monogatari” asari haqida to`liq ma`lumotga ega bo`la olamiz. Ularning bebaho ilmiy ishlari bizning malakaviy ishimiz uchun manba sifatida foydalaniladi. To`rayevaning 2006-yildagi malakaviy ishida “Genji monogatari” asariga adabiy yondashilib “Genji monogatari” romanining yaratilishi, mazmun mohiyati va jamiyatdagi o`rni haqida ilmiy izlanish qilingan. Ammo, undagi obrazlar haqida chuqur bayon etilmagan. Shuningdek bizning bitiruv malakaviy ishimizning mavzusiga yaqin Xeyan davri ayollar obrazi haqida Gafurova X.Sh kundaliklar janridagi “Mititsuna- no-xaxa” ning (“O`tkinchi hayot kundaligi”) asari asosida o`rgangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, mazkur ish keyingi tadqiqotlar uchun asos yoki qo`shimcha material bo`lishi mumkin, shuningdek u adabiyotshunos talabalar, sharq madaniyati bo`yicha mutaxassislar va yapon adabiyoti bilan qiziquvchi barcha insonlar uchun qo`shimcha qo`llanma vazifasini o`taydi. Va shuni aytib o`tishimiz lozimki, ushbu ilmiy ishning amaliy ahamiyati shundaki, Genji monogatari qissasining “Kiritsubo”, “Hahakigi” va “Yugao” kabi boblari BMI muallifi tomonidan o`zbek tilida tarjima qilinib tahlil qilingan. Shuningdek, Genji monogatari qissasidagi ayollar obrazi hali o`zbek tilida tadqiq qilinmagan bo`lib, bu bitiruv malakaviy ishimizning yangiligidan dalolat beradi. Bu esa kelgusida o`zbek tilida ilmiy ish qiladiganlar uchun qo`shimcha manba bo`la oladi.

Ishning metodologiyasi. Mazkur ishda biz badiiy asar tahliliga oid qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-tipologik tahlil metodlaridan foydalandik.

Ishning tuzilishi: BMI kirish, mavzularga ajratilgan 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati hamda ilovadan iborat.

Ishning kirish qismi umumiy ma'lumotlar, mavzuning o`rganilganlik darajasi, mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, tadqiqot metodlari va bitiruv malakaviy ishimizning tuzilishi bilan tanishtiradi. Shuningdek I, II va III boblarda yechiladigan muammolar qo`yiladi.

I bob Xeyan davrida adabiy jarayon, Murasaki Shikibuning hayoti va ijod yo`lini o`rganish hamda "Genji monogatari" qissasining mazmun mohiyatini yoritib berishga bag`ishlanadi..

II bobda esa – "Genji monogatari" asarining "Hahakigi" yoki "Yomg`irli tundagi suhbat" bobida ideal ayol obrazi haqida mulohazalarni tahlil qilgan holda Xeyan davrining ideal ayol obrazini aniqlashga, shuningdek, qissada keltirilgan uch toifaga mansub ayol obrazlarini tahlil qilgan holda asarda chuqur aks ettirilgan Xeyan davri zodagon, o`rtahol hamda quyi tabaqadagi ayollarining yashash tarzi, tarbiyasi, ularning tashqi go`zalligi, shu bilan birga ichki go`zalligi, bundan tashqari Xeyan davrida ideal ayollar obrazini tadqiq qilishga bag`ishlanadi.

Ishning xulosa qismida o`tkazilgan tadqiqot yakunlari ko`rib chiqiladi va umumiy xulosalar tavsiflanadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida rus tilidagi adabiyotshunoslarning asarlari hamda tadqiqotlari, ulardan tashqari, yapon tilidagi adabiyotlardan foydalanildi. Asosiy manba sifatida 「源氏物語」¹⁰("Genji monogatari") qissasining yapon adabiyotshunoslari tomonidan yig`ilgan to`plam hamda Sokolova-Delyusina rus tilida o`girilgan tarjimalaridan¹¹ foydalanildi. Shuningdek, ro`yxati malaka

¹⁰ 古典文学・源氏物語 2004年。Kotenbungaku Genji monogatari 2004 yil

¹¹ Мурасаки Сикибу Повесть о Гендзи В 4-х книгах пер.с яп Т.Л Соколовой-Делюсиной Москва "Наука"1991

ishiga ilova qilingan internet saytlarning materiallari va qo`shimcha adabiyotlardan foydalanildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatiga, yapon adabiyoti tarixi bilan bog`liq nazariy kitoblar hamda Xeyan davrini o`rganish bo`yicha tadqiqotlar, internet saytlari kiritilgan.

I BOB MURASAKI SHIKIBUNING XEYAN DAVRI ADABIYOTIDA TUTGAN O`RNI (XI-XII ASRLAR)

1.1. IX-XII asr Xeyan davri adabiy jarayon

Biz o`z ishimizda yapon shoirasi Murasaki Shikibuning “Genji-monogatari” qissasiga murojaat etganimiz bejiz emas.

Xeyan davri – Yaponiyada madaniyat, san’at va albatta, adabiyotning eng gullagan davri deya tan olingan. Davr nomining o`ziyoq uning muhitini anglab yetishimizga katta ko`mak beradi. O`rta asrlarda saroy adabiyotining gullab-yashnagan va epik janri (monogatari)¹² rivoj topgan davri Xeyan davri¹³ hisoblanadi. Bu davrda yaponlar Xitoy milliy an`analaridan vos kechib, yangi davlat barpo qilganlar. Shuningdek, insonlarning ma`naviy ongi yanada sayqallasha bordi va bu adabiyotga ham o`z ta`sirini o`tkazmay qolmadi.¹⁴

Yaponiya adabiyoti tarixida Xeyan davridan boshqa bundan chiroyli va o`zgacha muhitni tasavvur qilish qiyin. Xeyan davri adabiyoti milliylik ruhi bilan hamohang bo`lib, haligacha jahon adabiyotida o`z mavqeini yo`qotmagan. Bu davr adabiyoti hatto zamonaviy yevropa kishisida ham o`zgacha taassurot qoldiradi. Shu to`rt asr ya`ni IX-XII asrlar davomida Yaponiyada yaratilgan adabiy durdonalar nafaqat o`sha davrda, balki hozirgi XXI asrga kelib ham o`z qiymatini yo`qotgani yo`q.

Xeyan davri ijodkorlari his-tuyg`ular asosida ijod qilishgan. Xeyan adabiyoti, asosan, hissiyot pog`onalari va unda “ayol” va “erkak” ning ishqiy sarguzashtlari, faoliyatlari asosida qurilgan. Xeyanliklar hayotida kuchli hissiyotli sevgi asosiy o`rin egallagan va albatta, shu bilan birga ayol roli muhim ahamiyat kasb etadi. Ayol zoti xeyanliklar uchun ritsarlarniki kabi yoki samuraylar arenalarining tarixiga xos bo`lgan kabi katta hurmatga ega bo`lmagan. Ular uchun ayolga ta`zim qilish butunlay begona bo`lgan. Balki, ayol xeyanliklar uchun faqatgina ilhomlanishning asosiy predmeti hisoblangan, xolos. Shuningdek, ayollar e`tiborning markazi bo`lib, u eng aqlli, hammaga o`rnak bo`luvchi sifatida namoyon bo`lgan.¹⁵

¹² Monogatari – biron narsa haqidagi hikoya, qissa degan ma`nolarni bildirib, Xeyan davri yapon zodagonlar adabiyotida yaratilgan epik (hikoyaviy) nasrning asosiy janridir. Yevropa adabiyotida bunday janrga xos asarlar-roman, qissa, hikoya, novella, anekdot, epopeya deb yuritiladi.

¹³ Xeyan davri (平安時代, xeyan-dzidai) – Yaponiya tarixidagi IX-XII (794-1185-yillar) asrni o`z ichiga oladi. “Xeyan” so`zi tarjimada tinchlik, osoyishtalikni bildiradi. Bu nom joy nomi sifatida yuritilib, Yaponiyaning Naradan keyingi ikkinchi qadimiy poytaxti bo`lgan.

¹⁴ http://ru.wikipedia.org/wiki/Период_Хэйан

¹⁵ Н.И.Конрад Японская литература в образцах и очерках Том I.Издательство Москва "Наука"1991стр-86

Xeyan adabiyotini aylana deb tasavvur qiladigan bo`lsak, ayol uning markazidan o`rin olgan, atrofida esa, ikkita boshqa narsalar: tabiat va borliq joylashgan.

Xeyanliklar ilhomlanish elementi sifatida tabiat, uning go`zalligi, shu bilan birga mavjudlik holati – uning qulayligi va estetikasini nazarda tutishgan. Bundan xeyanliklar madaniyatining bo`lagi bo`lgan tabiat go`zalligi; xeyanliklarning osoyishta hayotga intilish bosqichlari boshlangan va albatta bunday osoyishtalikka Tan imperiyasining¹⁶ poytaxti Xeyanning gullab-yashnashida adabiyotning o`rni beqiyosdir. Shuning uchun ham, bu davr madaniyatning eng gullab-yashnagan davri, poytaxtning Xeyan ya`ni “osoyishtalik” markazi deb nomlanishi bejiz emasligini yana bir bor namoyon qiladi.

Agar ta`kidlash lozim bo`lsa, shuni aytish kerakki, Xeyan adabiyoti estetik falsafadan tashkil topgan. Xeyanliklar fikricha, har bir narsada, har bir tabiat tomonidan yaratigan hodisada ma`no-mazmun bor deb hisoblashgan, uning estetik qiymati va go`zalligidan “hayratlanishgan”, bu esa yapon adabiyotida mono-no-avare¹⁷ deb yuritiladi. Bu ular ishonishgan yagona hodisa edi. Ba`zan bu hayratlanish ochiq-oydin ko`zga tashlansa, ba`zan esa yashirin bo`lib u kitobxonni o`ylanishga, ma`nosini topishga undaydi. Doimo so`z ma`nosi ochiq yoki yopiq bo`lishidan qat`iy nazar uning o`ziga xos jihati va ochilish siri mavjud. Xeyanliklar ta`limotining o`ziga xosligi shunda ediki, agar inson varvar yoki oddiy inson bo`lmasa, ziyoli kishi bo`lib, jamiyatda alohida o`ringa ega bo`lsa u albatta, har qanday yashirin va hatto, sirli ma`noni ham anglab yetishi mumkin bo`lgan. Shuning uchun ham Xeyanliklar doimo ayolning o`ziga xos go`zalligini topishga harakat qilishgan. Shu ayol bilan bog`liq sevgi - xursandchilik nishonasimi yoki g`am-qayg`u nishonasimi baribir, bularning hammasidan qandaydir his-tuyg`ular zanjirini hosil qilishga uringanlar. Shuningdek, sevgiga javob berish holatlari yoki buning aksi – javobsiz qoldirilgan sevgidan ham go`zallik qidirishgan.

¹⁶ Tan imperiyasi 18-iyun 618-yildan~4-iyun 907 yilgacha hukm surgan.

¹⁷Н.И.Конрад Японская литература в образцах и очерках Том I.Издательство Москва "Наука",1991стр-87-90

Bundan kelib chiqib shuni ta'kidlab o'tishni lozim deb topdik: ayol va sevgi Xeyan adabiyotining bosh mavzusi bo'lib, har doim bularga bog'liq bo'lgan narsalar xeyanliklarni hayratga solgan, ularni ilhomlantirgan. Shuning uchun ham biz o'sha davrda yaratilgan ko'pgina asarlarning bosh mavzusi ayol va sevgi haqida ekanligini ko'ramiz. Bunga misol qilib, bizning bitiruv malakaviy ishimizning bosh manbasi hisoblangan "Genji- monogatari" qissasini olishimiz mumkin. Bu esa bizning bitiruv malakaviy ishimizda o'z isbotini topadi degan umiddamiz.

Hattoki, har bir xeyanliklar o'z uylarida nozik did bilan yasalgan taqinchoq anjomlari saqlashni istashgan. Bundan o'zlari uchun kerak bo'lgan go'zallikni topish xeyanliklarning maqsadi hisoblangan. Bu esa xeyanliklarning qanchalar nozik did sohibi ekanligi, go'zallikni qadrlay bilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Xeyan adabiyotida "mono-no-avare" juda rivoj topganini ko'rishimiz mumkin va bu keyingi avlodga bebaho meros bo'lib qolganini ham kuzatishimiz mumkin.¹⁸

Xeyan davri ijodkorlari uchun narsaning qiymatini ochib beradigan eng muhim qurol "so'z" hisoblangan.¹⁹ Predmetlarning o'ziga xosligini, go'zalligini ifodalovchi asosiy vosita so'zlarning ko'p ma'noiligi hisoblangan. Bu orqali badiiy bo'yoqdor so'zlarning hamda poetik obrazlarning vujudga kelishi, ularning hayotga tadbiiq qilinishini ko'rsatib bergan.

Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Xeyan davrida ijod qilish jarayonida asosiy janrlardan biri 31 bo'g'inli tanka janri hisoblangan. Bunda asosiy e'tibor so'zning ma'nosiga qaratilgan. Tanka o'zida o'sha davr muhitini ifodalagan. U roman, hikoya va qissalarning tarkibiy qismidan o'rin olgan. Ushbu qisqa she'r janri bilan Xeyan davri kundaliklari va safar taassurotlari yoritilgan. Shuningdek, oshiqlarning o'z mashuqalariga bildirilgan sevgi izhorlari, har bir qilgan xatti-harakatlari tanka orqali ifodalangan. Tanka nafaqat adabiyotda, balki

¹⁸ Мурасики Сикибу. Повесть о Гэндзи. Приложение /Вступ. ст., пер. с яп. Т.Л. Соколовой-Делюсиной. - М., 1992.

¹⁹ Пасков С.С. Япония в раннее средневековье VII - XII века. Исторические очерки. М., 1987. С. 125.

real hayotda ham hukm surgan, o'z o'rniga ega bo'lgan. Xeyan davri oshiq yigiti san'atining cho'qqisi "tanka"²⁰larda ham emas, garchi shakl va ma'no jihatdan benuqson tuzilgan bo'lsa ham, uning biror harakatida ham emas, balki ular birga olinganda unisida ham, bunisida hamdir: shoirona tasvirlangan ishlar va she'riyatga aylantirilgan harakat – mana shunda xeyanliklarga teng keladiganlar bo'lmagan.²¹

Xeyan davrining qimmatliligi – uning poetik antologiyalarida emas, ular qanchalik qiziq bo'lmasin, uning ko'p sonli, ba'zan monumental, ba'zan qator parchalar yoki xatlarni ifodalovchi romanlarida ham emas, uning intim adabiyoti, kundaliklari va monogatarilarida ham emas, aynan vakillarining hayoti va harakat tarzida, desak mubolag'a bo'lmaydi.²² Davrning badiiy asari deb na Antologiya, na bizning "qissamiz"ni ayta olamiz, bu Xeyan poytaxtining oshiq yigiti yoki xonimining estetizm bilan yo'g'rilgan hayotining o'zi.

Professor Fujioka yapon adabiyotini o'rganar ekan, uning rivojlanishida to'rtta alohida davrlarga bo'linishini aniqlaydi.²³

Uning fikricha, birinchi davr Xeyan davrining to'liq bir asriga teng bo'lib, IX asrgacha davom etgan va bu yapon adabiyotida "Konin davri"²⁴ deb ham nomlanishi mumkin. Konin hokimiyati davrida yapon adabiyotida muhim o'zgarishlar bo'lgani kuzatiladi.

Ikkinchi davr X asrgacha bo'lgan davr adabiyotini o'z ichiga oladi. Bu davr "Engi-Tenryaku davri"²⁵ deb ham yuritiladi. Bu davr yapon adabiyoti nuqtai nazaridan muhimroq davr hisoblanadi.

Uchinchi davr XI asrgacha bo'lgan davr bo'lib, bu Fujioka tomonidan "gullab-yashnagan Fujivara davri" deb nomlanadi. Fujivara hokimiyati davrida siyosat va madaniyat asosiy rol o'ynagan davr hisoblanadi.

²⁰ Tanka-短歌 «qisqa ashula» —31-bo'g'indan iborat

²¹ Конрад Н.И. Очерки японской литературы. М., 1973.стр 142

²² Горегляд В.Н. Японская дневниковая и эссеистическая литература X - XIII вв. Автореф. докт. дис. - Л., 1974.

²³ Н.И.Конрад Японская литература в образцах и очерках Том I.Издательство Москва "Наука"1991стр90-92

²⁴ Konin hukmdorlik yillari -813-823-yillarni o'z ichiga oladi.

²⁵ Engi hukmdorlik yillari-901-922, Tenryaku hukmdorlik yillari esa 947-956-yillarni o'z ichiga oladi.

To`rtinchi davr XII asrgacha davom etgan davr bo`lib, buni Fujioka “Insey davri” deb nomladi: bu davr siyosiy qarashlar kuchliligi bilan ajralib turadi.

Birinchi davr Yaponiya tarixida zodagonlar orasidagi adabiyoti rivojlanishining birinchi bosqichi hisoblanadi. Bu davr yapon adabiyotining turlari va janrlarining rivojlanish jarayoni shuningdek, adabiyot istaklarning to`planish davri desak xato bo`lmaydi. Ushbu davrda “abadiy oltilik” (Rokkasen)²⁶ - olti Xeyan davri adabiyotining buyuk namayondalari, ulardan birinchi navbatda Narixira, Komati va Xendzyolar Xeyan adabiyoti lirikasining iptidolari sanaladi. Bu davrga kelib yapon an’anaviy adabiyotining durdonalari “Ise-monogatari”²⁷, “Taketeri monogatari” qissalari dunyo yuzini ko`rdi. IX asrda xeyan davrida yaratilgan janrlar ichida asosiy darajaga ko`tarildi.

Ikkinchi va uchinchi davr yapon adabiyotining gullab-yashnashiga to`g`ri kelgan davr hisoblanadi. X asrda Xeyan she’riyati yuksaldi; 905-yilda “Kokinsyu”²⁸ dunyoga kelib, bu antologiya butun dunyoda mashhur 31 bo`g`indan iborat she’r „tanka” uslubida yozilgan. XI asrda Xeyan nasri (prozasi) ham yuksaldi.

Shu asrning so`ngida badiiy qiymati, mazmuni nuqtai-nazaridan yapon adabiyotining gultoji bo`lgan “Genji monogatari” qissasi ham dunyo yuzini ko`rdi.

Bu ikki katta ijod mahsulining atrofida boshqa janrlar, she’riy to`plamlar, povestlar, romanlar shu bilan birga, adabiy janrlar: kundaliklar, sayohatlar, hoshiya yozuvlari rivoj topib, Xeyan adabiyoti rivojiga o`z hissasini qo`shdi.

Bizlar Xeyan davrining katta epik asarlaridan – romanlari, povestlari, shuningdek, ko`p sonli kundaliklardan xeyanliklar budda marosimlariga qanchalik ixlosmand bo`lganliklari va hech bo`lmaganda buddaga sig`inishning turli shakllarini qanchalik

²⁶六歌仙 (ろっかせん) 『古今和歌集』 ashulalar to`plami, “abadiy oltilik”

²⁷ Конрад Н.И. Предисловие к Исэ-моногатари // Исэ-моногатари. Японская классическая повесть начала X века / Предисл., пер. с яп., исслед. Н.И.Конрада. С-Пб., 2000.

²⁸ “Kokinsyu” yangi va qadimiy yapon she’rlarining termasi.

zo`r berib tarqatganliklarini bilamiz²⁹. Buddvaviylik kundalik hayotga qabul qilindi, ammo, albatta bu asrning umumiy tamoyillariga qarshi bo`lmaganligi, buddaviylik³⁰ ham xeyanliklar uchun o`ziga xos bo`lgan dunyoqarash va olamni anglashni mustahkamlash va chuqurlashtirishga ko`maklasha olganligi tufayli bo`ldi.

To`rtinchi davr – XII asr adabiyotining salohiyatini o`z ichiga oladi. Bu so`z qiymati va adabiyotning mavqei tushgan davr hisoblanadi. Chunki, to`rtinchi davrda asosiy e`tibor siyosiy jarayonlarga qaratilgandi. Ilm-fan va madaniyatga bo`lgan e`tibor juda pasaygandi. Bu o`z navbatida, adabiyot va adabiy jarayonlarning salmog`iga salbiy ta`siri ko`rsatdi. So`z ma`nolari, uning qudrati, madaniyat rivoji kundan-kunga yomon ahvolga tushdi. Shu davrda tarixiy roman ko`rinishidagi “Eyga-monogatari” (“Taraqqiyot haqidagi qissa”) yaratildi.

To`rtinchi davr fojialaridan yana biri shunda ediki, bu davrda uzoq yillar davomida yapon adabiyotini bezab turgan “tanka” janri mavqei tushdi va ushbu janrda hech kim ijod qilmay qo`ydi. Shuningdek, monogatari janrida ham ijod qiluvchilar soni tobora kamayib bordi. Keyinchalik, ushbu janr ham o`z mohiyatini yo`qotdi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har bir davrda ham, hukumat yuqorisida turgan qatlam vakillari qanchalik ilmi va ma`rifatli bo`lishsa, mamlakat bo`ylab adabiyot va san`atga bo`lgan e`tibor shunchalik ortgan va adabiy jarayon gullab-yashnagan. Aksincha, siyosiy jarayonlar asosiy e`tiborda bo`lsa, adabiyot va san`atning mavqei tubdan tushib ketgan.

1.2 Murasaki Shikibu hayoti va ijod yo`li

Murasaki Shikibu hayoti haqida unchalik ko`p ma`lumot saqlanib qolmagan. Bor ma`lumotlar ham qahramonning o`zi tomonidan yozib qoldirilgan. Murasaki Shikibuning “Murasaki Shikibu qo`shiqlari jamlanmasi” (紫式部歌手-Murasaki Shikibu kasyu) va “Murasaki Shikibuning kundaligi” (紫式部日記-Murasaki

²⁹ Садокова, 2001 Садокова А.Р. Японский фольклор (в контексте мифолого-религиозных представлений). М., 2001.с78

³⁰ Buddaviylik Yaponiyaga VI asrda Xitoydan Korea yarim orollari orqali kirib kelgan.

Shikibu nikki) kabi asarlarida saroyda kechirgan umri haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Shuningdek, o'sha davr ijodkorlari asarlarida ham Murasaki Shikibu haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Murasaki Shikibuning haqiqiy ismi ma'lum emas. Xeyan davrida ijod qilgan boshqa shoir va yozuvchilarning ham haqiqiy ismi-sharifi haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolmagan. U Murasaki taxallusi bilan "Genji haqidagi hikoya" si yozib bo'linganidan keyin yoki shu asarning bir qismi yozilib, asar qahramonlaridan biri yosh Murasaki xalq orasida mashhur bo'lgan paytdan boshlab xalqqa tanilgan.³¹ Chunki, u keyin yozilgan asarlarida Murasaki taxallusi bilan imzo chekkan. "Kun chiqishi haqidagi she'rlar" nomli to'plamidayoq u Murasaki taxallusini qo'llagan ("Eyga-monogatari", XI asr oxiri yoki o'rtalarida).

Yozuvchining tug'ilgan yili haqidagi to'liq ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Ko'p hollarda 978- yil deb taxmin qilishadi. Manbalarning ba'zilarida esa, 970 yoki 973- yillar degan ma'lumotlar ham saqlanib qolgan. Murasakining otasi Fudzivara Tametoki ismli shaxs bo'lganligi ma'lum. Ammo, uning ota-bobolari unchalik ham yuqori martabalarga erishmaganlar. Murasaki ajdodlaridan bir qanchasi yaxshigina shoir bo'lishgan. Shoiraning katta bobosi Fudzivara Kanesuke (877-933) tarix zarvaraqlaridan nomi o'chmaydigan 36 shoirdan biri bo'lgan. U o'zidan keyin turli davralarda aytilgan "55 she'r" to'plamini qoldirgan. Shuningdek, VI asr oxiri va VII asr boshlarida yashagan Yaponiya davlat va madaniyat arbobi Syotoku-Taysining³² avtobiografiyasini ham Fudzivara Kanesuke yozib qoldirgan. Oiladagi ushbu muhit Murasakining kelajakda yetuk ijodkor bo'lib yetishishiga imkon yaratgan.

Murasaki ajdodlari uzoq yillar davomida imperatorlar xizmatida bo'lishgan. Ammo ma'lum bir vaqt oralig'ida imperatorlarning juda yoshligi va ular o'rnidan hukumatni saroydagi a'yonlar boshqarganliklari sababli ham, mamlakatda ijodga -

³¹ Перевод памятника на русский язык выполнен Т.Л. Соколовой-Делюсиной, см.: [Мурасаки Сикибу, 1991-1993]

³² Shahzoda Syotoku (яп. 聖徳太子, Syotoku-Taysi 574—622)

she'riyatga bo'lgan qiziqish pasayib boradi. Hatto, saroyda azaldan mavjud bo'lgan qonun-qoidalar ham o'zgarib boradi. Murasakining otasi Fudzivara Tametoki davrida esa, siyosiy vaziyat biroz yaxshilandi. U imperator Kadzan³³ saroyida xizmat qiluvchi ko'zga ko'ringan olimlardan biri edi.³⁴

Shu tufayli ham, Murasaki hayotining yarmi she'riyatning mavqei tushib ketgan, badiiy ijod bilan shug'ullanuvchilar soni kamaygan davrga to'g'ri kelsa, yarmi she'riyatning rivojlangan davrida edi.

Murasakining yoshlik davrida ijod qilgan she'rlarida ko'proq ayriliq tasvirlangandi. Chunki yosh qizaloq oilasidagi og'ir ahvolni o'z ko'zlari bilan ko'rib turgandi. U she'rlaridan birida bir kuni baxtli bolaligini uchratib qolgani haqida yozadi. Ular shunchalik yaqinlashishganki, u xuddi eng yaxshi ko'rgan o'rtog'idek bo'lib qolgandi. Lekin, kuni kelib o'rtog'i Murasakini tashlab ketgandi. Bu o'y bilan raqobat qilib kim o'zarga ketib qolishdek edi. Shundan beri yosh shoira qalbini ayriliq azobi qiynaydi.

996- yil kuzida Fudzivara Tametoki qizi Murasakini olib Etidzenga ketadi. Bu Murasaki hayotidagi dastlabki sayohat edi. Potaxtdan Etidzengacha uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tish talab qilinardi. Orada tog'lar, daryolar va tepaliklarni kechib o'tish kerak edi. Ular taxminan to'rt kun yo'lda bo'lishdi. Yosh Murasaki uchun esa tabiatdagi har bir narsa qiziqarli va jozibali tuyulardi. Yosh shoira estaliklarida ushbu safar taassurotlari aks ettirilgan bir qancha she'rlar o'z ifodasini topgan.

998- yil Murasaki safardan yolg'iz qaytib keladi va otasining shajarasidan bo'lgan Fudzivara Nobutakaga turmushga chiqadi. Fudzivara Nobutaka 45 yoshlar chamaliq kishi bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Nobutaka Murasakini yoqtirib qoladi va Murasakilar oilasi safarga ketishidan oldin uning otasidan qo'lini so'raydi. Oila a'zolari "yo'q", deya javob qaytarishadi va yoppasiga poytaxtdan

³³ Imperator Kadzan (yap. 花山天皇 *Kadzan-tenno* 29-noyabr 968 – 17-mart 1008yillar). Hukmdorlik yillari 5-noyabr 984-yildan 31-iyul 986-yilgacha.

³⁴ ja.wikipedia.org/wiki/紫式部

ko'chib ketishadi. Nima bo'lgan taqdirda ham, Nobutaka o'z ahdidan qaytmaydi va Murasakiga xatlar yozib turadi. Yosh shoira ham xatlarni javobsiz qoldirmaydi va nihoyat, unga tegishga rozilik bildiradi. Murasaki turmushga chiqqanda 25 yoshda edi va bu Murasaki yashagan davr uchun turmush qurish uchun juda kech edi.

Ammo, uning umri qisqa ekan. 1000-yilda Nobutaka 49 yoshida vafot etdi. Uyida uni eslatib turuvchi ikkita kitob javoni bor edi. Nobutakaning vafotidan keyin ushbu kitoblarni hech kim varoqlab ham ko'rmagan edi. Murasaki sekin-asta ularni o'qiy boshladi va shu bilan anchagina ovunib qoldi. Chunki, turmush o'rtog'ining vafoti unga juda yomon ta'sir qilib, tushkunlikka tushib qolgandi. Oradan bir oz vaqt o'tgandan keyin Murasakining eshigi oldiga uning qo'lini so'rab keluvchilar paydo bo'ldi. Lekin Murasaki ularni rad etdi va o'zini qizi tarbiyasiga bag'ishladi.

1005-yil oxirlarida Nobutakaning vafotidan so'ng Murasaki saroy xizmatchisi bo'lib Syosi³⁵ xizmatiga kirdi. O'shanda saroylarda xizmat qiluvchi ayollar oqsuyaklarning o'rta tabaqasiga mansub bo'lishgan. Ularni nyobolar (女房)³⁶ deb atashgan. Nyobolar o'z xonimlari (o'zlari bo'ysunadigan ayollar) turadigan saroyda ajratilgan mahsus xonalarda, alohida pardalar tortilgan holda yashashgan. Ular bekalari buyurgan har qanday yumushni bajarishgan, kelgan mehmonlarni kutib olishgan, xatlarni qabul qilib, ularga javob yozishgan, bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanishgan. Ularning har biri o'z xizmatchilariga ega bo'lishgan.

Shu paytda Syosi xizmatiga Murasaki bilan bir qatorda Idzumi Sikibu, Akadzome Emon kabi mashhur shoirlalar qabul qilindilar. Chunki o'shanda Mitinaga³⁷ asosiy e'tiborni mushoira oqshomlariga qaratgandi. 1002-1006-yillar oralig'ida o'tkazilgan bunday kechalar soni yigirmatacha edi. Saroyda tez-tez har xil tadbirlar va kechalar uyushtirilardi. Ularda qo'shiq kuylanar, she'r o'qilar,

³⁵ Syosi- Imperatorining xotini.

³⁶ Nyobo-imperato xonimlariga bo'ysinuvchi saroy xizmatchilari.

³⁷ Mitinaga – Fujivaralar oilasidan bo'lgan aristokrat.Hokimiyat tepasida Imperator bo'lsada amalda hukmdorlik Mitinaga qo'lida bo'lgan.

mamlakat bo‘ylab yig‘ilgan kolligrafiya san‘ati namunalarining ko‘rgazmalari uyushtirilar, imperatritsaga bag‘ishlab she‘riy asarlar bitilib, omma oldida e‘lon qilinardi.

Mitinaga Murasakining otasini oldindan bilar, uni shoir sifatida e‘zozlar va tez-tez saroyga taklif qilib turardi. Shuningdek, Murasakining xitoy tilini yaxshi bilishi Mitinagani qiziqtirib qo‘ygandi. U Murasakini Syosining xitoy tili va ijodiyoti bo‘yicha o‘ng qo‘li qilishga va‘da bergandi. Ammo shu paytda Murasakining “Gendzi haqidagi hikoya”³⁸si mashhur bo‘lib, saroydagi mavqei kundan-kunga ortib bordi.

Demak, Murasaki hayotini o‘rganib shunday xulosaga kelishimiz mumkin: u yoshligidan juda iqtidorli, qat‘iyatli va uzoqni ko‘zlab ish qiladigan shaxs bo‘lgan. Uning iqtidorliligini yoshligidanoq she‘r yoza boshlagani, oilasi boshiga og‘ir kunlar tushgan vaqtda “Ayriliq” nomli she‘rlarini o‘ylab topganligi, safar chog‘ida esa, ko‘rgan har bir tabiat ne‘matlariga atab ijod qilganligidan bilib olishimiz mumkin. Qat‘iyatliligi esa hayoti davomida nimaga ahd qilsa, shuni oxiriga yetkazmay qo‘ymasligidan yaqqol ko‘rinadi. Uzoqni ko‘zlab ish qilishiga bir nechta dalillarni ko‘rsatishimiz mumkin. Dastlab, u uzoqni ko‘zlab 45 yoshda bo‘lsa ham, uni sevadigan va hayoti davomida hech narsaga zoriqtirmaydigan, baxtli qiladigan kishiga turmushga chiqdi. Turmush o‘rtog‘ining vafotidan so‘ng uzoqni ko‘zlab va o‘zini ovutish maqsadida xitoy tilini o‘rgandi. Ikkita kitob javonini to‘ldirib turgan kitoblarni o‘qib chiqdi. Kuni kelib shu bilimlari unga asqotib qolishini bilgandi. Sovchilikka kelganlarga qizining taqdirini o‘ylab rad javobini berdi va kelajagini mushohada qilgan holda, saroyga qaytib, o‘z mavqeiga ega bo‘ldi.

Ko‘rinib turibdiki, Murasaki yozib qoldirgan asarlarning qiymati ortib borishi shunchaki bir tasodif emas. Buning ortida ham ajdodlardan meros bo‘lib qolayotgan qobiliyat, ham yillar davomida yosh qizaloqqa ta‘sir qilgan ziyolilar

³⁸ “Genji monogatari” “Genji haqida hikoya” deb ham tarjima qilinadi.

muhibti, ham ijodkorning o‘z ustida izlanishi yotadi. Menimcha, Murasaki singari tom ma’nodagi kuchli ayollarning jamiyatda ko‘payishi hozirgi zamon uchun ham foydadan xoli bo‘lmaydi.

1.3. “Genji monogatari” asarining mazmun mohiyati

“Genji haqidagi qissa” monogatari janrining o‘ylab topilgan ya’ni to‘qib chiqarilgan (“Tsukuri monogatari”—作り物語) janriga ³⁹xos bo‘lib, X-XI asrlarda yaratilgan Genji monogatari Xeyan davri romanchiligining nodir namoyondasiga aylandi.⁴⁰

平安時代の物語の中で「源氏物語」ほど精密な言葉づかいで書かれた作品は他にはないと確信される。その言葉遣いの細やかさが分かるようになれば『源氏物語』は面白さがさらに深まってくる。⁴¹

Xeyan davrida yaratilgan monogatarilar ichida “Genji monogatari” dek mukammal, yorqin so‘zlar bilan ifodalangan asar mavjud emas. Kimda-kim undagi so‘z mahoratini anglasa, “Genji monogatari” ning asl mohiyatini tushinadi, unga qiziqishi yanada ortadi.

Darhaqiqat, Genji monogatarini o‘qir ekansiz, qissada muallifning so‘z mahoratidan mohirona foylanganligiga guvoh bo‘lasiz. U yapon adabiyotiga xos “mono-no-avare” uslubida ijod qilgan bo‘lib, ayol va sevgi mavzularini ilgari surib uning atrofidagi mavjud borliq va tabiatni bir- biriga uzviy bog‘laydi.

Monogatari janrida asosan ayollar ijod etgan bo‘lib, erkaklar hattoki qiziqib ham ko‘riishmagan. Ammo “Genji monogatari”ning yaratilishi bunday an’anaga chek qo‘ydi va erkaklarning sevimli asariga aylandi. Buni biz Murasakining kundaligida Genji monogatari haqida bitgan xotiralarida ko‘rishimiz mumkin.

³⁹Tsukuri monogatari janriga “Taketori monogatari”, “Ochikubo monogatari”, “Utsubo monogatari”lar ham kiradi. Monogatarining bundan tashqari to‘rtta tui mavjud bo‘lib, bular “She’riy monogatari(Uta monogatari-歌物語)”; “Hujjatli monogatari(Tsutsuroku monogatari 筒六物語)”, “Tarixiy monogatari(Rekishimonogatari-歴史物語)”; “Hikoyaviy monogatari(Setsuva monogatari-説話物語)”;

⁴⁰ Конрад Н.И. Очерки японской литературы. М., 1973.стр 91

⁴¹ 大野晋「古典を読む・源氏物語」岩波書店 1984

“Bir kun Imperator Mitinaga Genji monogatari asarini o`qishlarini eshitib qolib, shunday deydi: bu ayol “Nihongi” asarini o`qib chiqqan bo`lsa kerak, haqiqattan uning ilm darajasi beqiyos”. Imperatorning gaplari bir pasta saroy ahliga tarqalib, endi Murasakini “Nihongi xonim” deb chaqira boshlaydilar.” Bundan uning asariga qanchalik ilmiy yondashgannini ko`ramiz. Chunki Xeyan davrida har qanday ayol Nihongini o`qishga qodir emas edi vaholanki, ayollarga xitoy ierogliflarini o`qish man etilgan .

Konrad N.I Genji-monogatari asarini etnik-tarixiy jihatdan tahlil qilar ekan, romanning mazmuni ancha murakkab va chigal ekanligini ma`lum qiladi va unda murakkab vaziyatli kombinatsiyalaridan tashqari ishtirok etayotgan shaxslarning o`zi 300 dan ortiq bo`lib, ulardan 30 tasigacha bosh qahramonlar qatoriga kiritilishi mumkin degan g`oyani ilgari suradi.

Monogatari sifatida to`qimaning ishonchliligi, ruhiyatning tasvirini mohirona ifodalanishi, mantiqning mukammalligi, shuningdek, kompozitsiyasining estetikaviyligi hamda mazmunining o`tkirlikidan kelib chiqib, yapon adabiyotida bir so`z bilan aytkanda, 古典の中の古典(koten-no naka-no koten)“durdonalar ichida durdona” deb atalib, unga hali hanuz ham tan berilib kelinmoqda.

Bu qissaning mazmuni bir insonning hayoti haqida bo`lib, uning tug`ilganidan to o`lguniga qadar bo`lgan davr haqida shoshmasdan, mukammal bayon etilgan. Romanning bosh qahramoni Imperatorning o`g`li Genji ismli shahzoda bo`lib, uning atrofida turli-tuman go`zal ayollar parvona bo`ladi. U hayoti davomida juda ko`p ishqiy sarguzashtlarni boshdan kechiradi. Murasakining qahramoni ijtimoiy axloqqa, jamiyat va din tartiblariga ongli ravishda qarshi chiqish fikridan yiroq. Murasaki ifodalagan har qanday muhabbat yo`qotishlar, tashvishlarga olib keladi, barcha go`zallikning nafisligi sababli o`lim bilan yonmayon turadi. Yozuvchi o`z doirasidagi odamlar hayotini har tomonlama va to`laqonli ifodalashga intiladi. U ularga xos bo`lgan umumiy narsalarni izlaydi va qahramonlarning, jumladan Genjining taqdirlari, hayotiy oqimga uning bir qismi sifatida kiritilgan. Genji haqidagi hikoya avvalombor hayotga, hissiyotlar, ishqiy

va oilaviy munosabatlarga taalluqli, u saroy turmushi va tabiatning o`zgaruvchan manzarasining yorqin fonida rivojlanadi. Murasaki dil holati va tabiat holati orasidagi psixologik parallelizmni mohirona qo`llaydi.

Qo`lyozmaga ko`ra asarning hajmi juda katta bo`lib, birgina qo`lyozmada ishtirok etkan yozma belgilarning o`zigina taxminan 1 milliondan ortadi. To`rt yuzta katakdan iborat qo`lyozma(原稿用紙) varaqdan 2400 varaq bo`lib, Romandagi voqealar rivoji 70 yildan ziyod davr haqida bayon etadi.

Asar ikki qismdan iborat bo`lib, birinchi qismga 44 ta bob kiritilgan. Ikkinchi qism esa 10ta bobdan tashkil topgan. Birinchi bob Genji shahzodasiga bag`ishlangan bo`lib, faqat uning hayotidagi ishqiy sarguzashtlariga aloqador ayollar obrazini mujassamlashtirgan bo`lib, ikkinchi bobda esa endi Genjining hayotini emas, uning o`g`li Kaoruning hayotini tasvirlaydi. Muallif biror bobning syujetlarini jamlashda ko`pincha shunday usuldan foydalanadi: u biror motivni yakunlamay qoldiradi, aynan shu hol keyingisiga ko`prik vazifasini o`taydi. Bunday paydo bo`lish o`z navbatida mazkur bob mazmunining bundan keyingi rivojiga asos bo`ladi.

Xeyan adabiyotining taniqli bilimdoni prof. Fudzioka “Udzining 10-bob”idan tashqari butun “Gendzi” romanini uchta yirik tomga ajratadi: 1 tom 20 ta bobdan, Kirisubodan to Asagaogacha⁴²; 2 tom 13 ta bobdan, Vakandan to Takegavagacha, iborat.

Birinchi tomda Gendzining tug`ilganidan to 32 yoshga to`lgunicha bo`lgan hayotini ifodalanadi. Bu yerda Gendzining o`spirinligi va yoshlik chog`lari, uning ko`plab sarguzashtlari, bir ayoldan boshqasiga o`tishlari bayon etiladi. Bu davrda yaponcha ibora bilan aytganda uning qalbi hali maromiga yetmagan edi.

Ikkinchi tomda Gendzining yetuklik davri – 32 dan 39 yoshgacha bo`lgan davri bayon etilgan. Uning gullab yashnagan, hayoti eng cho`qqi nuqtasiga yetgan, cheksiz baxtga erishgan davri.

⁴² Genji monogatari qissasini tashkil etkan boblar nomi undagi asosiy ayol qahramoni nomiga ataladi.

Uchinchi tomda qahramon hayoti poyoniga yetib qolgan davri- 39 yoshidan to o`limigacha bo`lgan davr ta`riflanadi. Bu qarz to`lash, qilmishlarga javob berish davri: birinchi tomdagi davrdagi qasos olinishi kerak; yoshlikdagi beboshlik va ishratlar uchun qariganda javob berish kerak. Fudziokaning bunday taqsimotida ocherkning boshida tilga olingan “Gendzi-monogotari”ning buddaviylik nazariyasining ta`sirini ko`rish mumkin: tadqiqotchi haqiqatda ham “Gendzi”da budda unsurlarini ta`kidlashga moyil. Biroq har xolda bunday qarashlar mazmuni jihatidan ham asossiz emas: romanni o`qiganda beixtiyor unda uch qism mavjudligini his etadi “Qahramonning yoshligi”, “Etuklik davri” va “Qariligi” yoki boshqacha talqinda – “Intiqom yillari”. Qahramon Genjining ishqiy sarguzashtlari bilan bog`liq ayollarning ko`pligi mohiyatiga ko`ra Murasakining asosiy mavzusi – “erkak qo`lidagi ayol” mavzusini bayon etadi.

Murasaki yaratgan jamiyatga tegishli bo`lgan insonlar ruhiy olamining o`ziga xos hislati atrof muhitni hissiy idrok etish, go`zallikdan lazzatlanishga intilish bo`lgan.

II BOB “GENJI MONOGATARI” ASARIDA XEYAN DAVRI AYOLLAR OBRAZINING TAHLILI

Xarakteri va mohiyati jihatidan xeyan davri ma`naviy madaniyati-aslzodalarga xosdir. Shuningdek, Xeyan davrida saroy xonimlarining aslzodalarga xos madaniyati o`z rivojining cho`qqisiga yetadi.

O`z romanida Murasaki Shikibu yuqoriga erishish uchun bo`lgan kurashda g`olib chiqish uchun ayol qanday xislatlarga ega bo`lishi kerakligini ko`rsatadi. Qiz bola oila mavqeini mustahkamlaydigan nikoh qurish imkoniga erishadi degan umidda, u go`dakligidanoq nikoh hayotiga o`rgatiladi. Qizlari ko`p bo`lgan oilalar baxtli deb hisoblangan. Qiz bola, xitoy fanlaridan tashqari, erkak bilgan barcha narsani o`zlashtirishi kerak edi. Oliy tabaqali oilaning qizi musiqa asboblarini chalishni, rasm chizishni, chiroyli yozishni bilgan, u nafaqat yapon poeziyasi namunalarini yoddan bilgan, balki o`zi ham she`rlar yoza olgan.

Ayollar erkaklardan farqli o'laroq ijtimoiy hayotda ishtirok etishdan chetlashtirilgan. Xeyan ayoli (zodagon oilaga mansub bo'lgan ayol) deyarli hech kimga ko'rinmasdi. Faqat eng yaqin kanizaklargina o'z bekasi bilan bevosita aloqada bo'lish huquqiga ega edilar.

Ayol xitoy adabiyotini bilmasligi ham mumkin edi, bu sohadagi ortiqcha bilimdonlik uncha yaxshi taasurot qoldirmasligi mumkin edi. Imperator ayollar bundan mustasno bo'lgan, biroq ular ham xitoy adabiyotini yashirincha o'rganishni afzal ko'rishgan. Erkaklar ierogliflar bilan yozishgan bo'lsalar, ko'pincha xitoycha, ayollar aksincha, faqat yaponcha yozishgan, ieroglifni qo'llash axloqsizlik hisoblangan.⁴³

Xeyan davrida nikoh mustahkam hisoblanmasdi, u osongina bekor qilinishi mumkin edi, uning mustahkam bo'lishi avvalambor ayolning fazilatlariga bog'liq bo'lardi.

Yakun yasab shuni ta'kidlash lozimki, oliy Xeyan aslzodalarining berk olami, bir-biriga o'xshash ermaklar va kundalik hayot ko'p asrli an'analar va qonunlarga qat'iy bo'ysindirilgan bo'lib, bu xitoyning bevosita ta'sirining oqibati edi. Saroy xonimining holatini uning tashqi ko'rinishi, axloqi va moddiy ahvoli aniq belgilardi.

Xeyan davri ayolining hayotiy kechinmalarini biz Genji-monogatari romanida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Genji monogatari da 54ta ayol obrazi ishtirok etkan bo'lib unda nafaqat obrazlarning tashqi ko'rinishlari, xarakterlari, hayot tarzlari balki ichki kechinmalari haqida ham mukammal bayon etiladi. "Genji monogatari" ning amaliy ahamiyati shundaki ushbu romanning muallifi ayoldir, faqatgina ayol bunday ehtirosli, hissiyotga boy roman yozishi mumkin. Murasaki shikibu saroyda xizmat qilganligi sababli saroy hayotini juda yaxshi bilgan buni biz uning "Genji haqida hikoyasi" ni o'qibqina amin bo'ldik.

⁴³ Дочь Сугавара-но Такасуэ. Одинокaя луна в Сарасина /Пер. с япон. И.В. Мельниковоу // Тысяча журавлей: Антология японской классической литературы VIII – XIX вв. СПб., 2005

2.1 “Yomg`irli tundagi suhbat”da ideal ayol obrazi haqida mulohazalar

Bizning bitiruv malakaviy ishimizning manbasi sifatida “Genji monogatari” qissasi olingani bejiz emas. Qissaning bosh qahramoni Genji shahzodasi atrofida ayollar ko`p bo`lib, ular orasida zodagonlar oilasiga qarashlilarini ham, o`rtahol oilaga mansublarini ham, shuningdek, quyi tabaqaga mansub ayollarni ham uchratishimiz mumkin. Aynan shu ayollar bizning bitiruv malakaviy ishimizning asosi hisoblanadi.

Biz Genji - monogatari qissasi ichidan 「帚木」の巻の中の“雨夜の品定め –Hahaki-gi bobidagi “Yomg`irli tundagi suhbat”⁴⁴ni tanlab oldik. Bu bo`lim Genji shahzodasi va uning uch do`sti Tyudzyo⁴⁵, Uma-no kami⁴⁶

⁴⁴ 古典文学・源氏物語①2004年、五三～七七 p p Kotonbungaku Genji monogatari birinchi kitob,2004-yil,53-77betlar.

⁴⁵ 中将 – Tyudzyo – Ikkinchi vazirning o`g`li, Genji shahzodasining yaqin do`sti.

hamda To-sikibu-no dzo⁴⁷ o`rtasida bo`lib o`tgan suhbatga bag`ishlangan bo`lib, bu suhbat bosh mavzusi ayollar bo`lib, ularni tabaqaga ajratib, ideal ayol haqida baxs yuritishadi. Bu esa o`z navbatida “Yomg`irli tundagi suhbat” bizning bitiruv malakaviy ishimizni yoritib berishga xizmat qiladi. Biz suhbatda keltirilgan ayollarning o`ziga xos xususiyatlarini 12 qismga bo`lib o`rgandik. “Yomg`irli tundagi suhbat” da ayollar haqida berilgan fikr va mulohazalar Xeyan davridagi ayollar talqiniga bag`ishlanadi va shu davrdagi ayollar haqidagi fikrlar nazariy jihatdan boyitilgan.

Suhbat Tyudzyoning ideal ayol obrazi haqida tushunchasi bilan boshlanadi :

女の、これはしもと難つくまじきは、難くもあるかなと、やうやうなむ見たまへ知る。(1)ただうはべばかりの情けに、手走り書き、をりふしの答へ心得て、うちしなどばかりは、随分によろしきも多かりと見たまふれど、そもまことにその方を取り出でむ選びにかならず漏るまじきは、いと難しや。(2)わが心得たることばかりを、おのがじし心をやりて、人をば落としめなど、かたはらいたきこと多かり。⁴⁸

*Ma`lumki atrofda ayollarning munosibi, tamoman mukammal ayol ko`p emas. (1) Dadillik bilan tezlda , xatga javoban mohirona so`zlardan foydalanib xat yoza oladigan ayollar sanoqli darajada kam. Atrofda ayollar ko`p, lekin ular orasidan mukammalini izlaydigan bo`lsang, aminmanki, bittasi ham sinovdan o`tmaydi. (2)Shunday qizlar borki parda ortida berkitilib voyaga yetadi, hech kimga ko`rsatilmaydi, insonni hayajonlantiradi. Lekin uni yaqindan bilganingda, axloqsiz ekanligini va boshqalarga past nazarda qarashini tushinasan.*⁴⁹

Yuqoridagi «dadillik bilan, tezlik bilan xatga javoban mohirona so`zlardan foydalanib xat yoza oladigan ayollar» jumlasini shuni ko`rsatadiki, demak, xat yoza

⁴⁶左馬頭—Xidari-ni uma-no kami – saroydagi otlarga javobgar shaxs.

⁴⁷ 等式部丞— To-sikibu-no dzo – saroydagi marosimlarga javobgar shaxs. Romandagi obrazlar lavozimiga qarab nomlangan.

⁴⁸ 古典文学・源氏物語① 2004年、五六 p p Kotenbungaku Genji monogatari birinchi kitob, 2004-yil, 56-bet

⁴⁹ Muallif tarjimai

olishiga qarab ham ayollarning qobiliyati baholangan. Ya'ni tezda, mohirona xat yoza olishi yoki yoza olmasligi ham ayolning ijtimoiy mavqeiga bog'liq deb hisoblangani aniqlandi.

Ikkinchi qismda esa Xeyan davrida zodagonlar oilasiga mansub qizlar parda ortida ya'ni uydan tashqariga chiqarilmasdan tarbiya qilinganlar. Lekin, ular ulg'ayib, a'lo darajaga yetgach, insonlarni urishib-so'kish, uyaltirish, kamsitish, tahqirlash kabilar atrofdagilarga nisbatan bo'lgan hurmatsizlik uyatli deb hisoblanadi. Ya'ni boshqalarni ustidan kulib, ularni kamsitish-bu uyatli holat deb, bunga yaxshi baho bermasligi aniqlandi.

Keyingi baxs o'rta tabaqali oilalarga qarashli ayollar haqida yuritiladi.

人の品高く生まれぬれば、人にもてかしづかれて、隠るること多く、自然にそのけはひこよなかるべし。(3)中の品になむ、人の心々、おのがじしの立てたるおもむきも見えて、分かるべきことかたがた多かるべき。下のきざみといふ際になれば、ことに耳たたずかし⁵⁰

*Qaysiki zodagonlar oilasiga mansub ayol bo'lsa, unga doimo oilasidagilar tomonidan eng yaxshi mehribonchiliklar ko'rsatiladi, ko'pincha tashqari ko'zlardan asraladi. Va unga nisbatan har qanday insonda qiziqish kuchliroq. (3) o'rta tabaqadagi ayollarga keladigan bo'lsak, ochiq yuzli bo'lib, ular bilan muloqotga kirishish osonroq. Quyida tabaqadagilar haqida esa gap bo'lishi ham mumkin emas.*⁵¹

Atrofdagilar ijtimoiy holati baland ayollar haqida yolg'ondan yaxshi gapirishsada, aslida haqiqat aksincha. Ya'ni og'zida gapirishsa ham, ular haqidagi asl haqiqatni berkitishadi. Ana shunday xususiyatlarga ega ijtimoiy mavqei baland ayollardan farqli o'laroq, o'rta maqomdagi ayollarning xususiyatlari ochiq va oydin bo'lib, insonlarni o'ziga tortib turadigan istaraga ega edilar.

⁵⁰ 古典文学・源氏物語① 2004年、五八 p p Kotenbungaku Genji monogatari birinchi kitob, 2004-yil, 58-bet

⁵¹ Muallif tarjimai

Uchinchi qismda past tabaqali ayollarga e`tibor berib, ularni qo`llab-quvvatlash esa insonlarning hayoliga ham kelmaydi. Oilasining kelib chiqishi, zoti yaxshi bo`lmasa u tomonga qaralmaydi. Ammo yuqori tabaqadagi ayollardan ko`ra o`rta maqomga ega ayollarning husni boshqacha va ularga bo`lgan qiziqishi ulkan. Tyudzyoning aynan mana shu fikri juda qiziq.

Tyuzdyoning gapiga nisbatan Genji shunday deydi:

「その上中下という身分をどう種別すればいいのか、中流とはどういった身分のことなのか」⁵²

*Ayollarni yuqori, o`rta, quyi tabaqalarga ajratib nimani nazarga tutyapsan?*⁵³

Genji bu bilan insonlarni tabaqaga ajratish yaxshi emasligini do`stiga tushintirib turgan bir paytta ularning suhbatiga Xidari-no uma-no kami va Tosikibu-no dzolar kelib qo`shiladi.

Uma-no kami:

(4)元の品、時世のおぼえうち合ひ、やむごとなきあたりの内々のもてなしけはひ後れたらむは、さらにも言はず、何をしてかく生ひ出でけむと、言ふかひなくおぼゆべし。⁵⁴

*Zodagonlar oilasida tarbiya topgan ayollarida ham kamchiliklar bo`lishi insonlarni hayoliga ham kelmaydi. Agar shunaqasini uchratsang undan ko`ngling tezda soviydi.*⁵⁵

To`rtinchi qismda yuqori tabaqali oiladan chiqqan ayolning tarbiyasi, madaniyati yaxshi bo`lmasligi ham mumkin. Lekin aynan manashu narsa oilaning yaxshi yomonligidan dalolat beradi va eng asosiy shartlardan biri deb bilamiz.

Uma-no kami gapida davom etadi:

⁵² 古典文学・源氏物語① 2004年、五八 p p Kotenbungaku Genji monogatari birinchi kitob, 2004-yil, 58-bet

⁵³ Muallif tarjimasi

⁵⁴ 古典文学・源氏物語① 2004年、六〇 p p Kotenbungaku Genji monogatari birinchi kitob, 2004-yil, 60bet

⁵⁵ Muallif tarjimasi

(5)さて、世にありと人に知られず、さびしくあばれたらむ葎の門に、思ひの外にらうたげならむ人の閉ぢられたらむこそ、限りなくめづらしくはおぼえめ。⁵⁶

*Biroq menimcha eng hayratlanadigan narsa bu kichkinagina hech kim bilmaydigan xaroba uychada to'sattan qandaydir go'zal bir ayolni uchratib qolish deb o'ylayman. Uning borligi haqida hattoki atrofdagilar taxmin ham qilishmagan.*⁵⁷

人気のない、荒れている家に意外に、愛らしい娘がいるのは心魅かれると、今の家柄は良くなくても、愛らしげであれば心惹かれることがあることがうかがえる。⁵⁸

*Aynan tanilmagan, sustroq uyda tarbiya topgan qizlar yoqimtoy bo'lishadi. Hozir yashayotgan uyi, oilasi uncha yaxshi bo'lmasada, ular o'zlarining yoqimtoyliligi bilan yuragimni olib qo'yishadi. Va ular bilan muloqotga kirishishga harakat qilaman.*⁵⁹

Beshinchi qismda Uma –no kami gaplaridan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, Xeyan davrida asosan zodagon ayollar e'tibor markazida bo'lib quyi tabaqalardan bo'lgan go'zallikda, nafosatda oqsuyak ayollardanda yuqori bo'lgan toifalar nazardan chetda qolgan. Vaholanki, ularning fe'l-atvori, chiroyi, tarbiyasi har qanday insonni o'ziga maftun qila olishi aniqlandi.

(6)容貌きたなげなく、若やかなるほどの、おのがじしは塵もつかじと身をもてなし、文を書けど、おほどかに言選りをし、墨つきほのかに心もとなく思はせつつ、またさやかにも見てしがなとすべなく待たせ、わづかなる声聞くばかり言ひ寄れど、息の下にひき入れ言少ななるが、いとよく

⁵⁶ 古典文学・源氏物語① 2004年、六〇 p p Kotenbungaku Genji monogatari birinchi kitob, 2004-yil, 60bet

⁵⁷ Muallif tarjimasi

⁵⁸ 古典文学・源氏物語① 2004年、六一 p p Kotenbungaku Genji monogatari birinchi kitob, 2004-yil, 61bet

⁵⁹ Muallif tarjimasi

もて隠すなりけり。(7)なよびかに女しと見れば、あまり情けにひきこめられて、とりなせば、あだめく。これをはじめの難とすべし。⁶⁰(163)

(6)Ko`rki go`zal, juda yosh, tarbiyasi ham unga teng keladiganlar yo`q darajali ayollarning, xatni yozishi ham o`zgacha, xatning siyohlaridan husni ko`rinib turishi mening qiziqishimni orttiradi. Bunday ayolning yonida bo`lsam ham uzoqlarda bo`lgandek, mening rashqimni keltirishadi. (7)Va suxbat davomida, chiroyli ovozlari bir zumga o`chib qolishi meni yanada ko`proq ilhomlantiradi va zavq bag`ishlaydi. Aynan shuning uchun ham ularning mayda kamchiliklari oldida men ojiz bo`laman. Ya`ni ularga qiziqishim ortib boraveradi. Ammo ularning go`zalligi a`lo ko`rinib qolsa yana qo`rqa boshlayman. Shunisi yaxshi emas deb o`ylayman.⁶¹

Oltinchi qismda ko`rki go`zal, juda yosh, tarbiyasi ham unga teng keladiganlar yo`q darajali ayollarning, xatni yozishi ham o`zgacha, xatning siyohlaridan ularning husni ko`rinib turishi deganda, ayollarning husni ularning yozgan xatlarida ekanligini aniqladik. Umuman olganda ayolning go`zalligi muhabbatning birorta ham bosqichida muhim rol o`ynamagan. Dastlab, erkakning tasavvuri xatlarning tez yozilishi, hissiyotlarga shama qiluvchi nafis she`rlarda o`z aksini topgan. Yettinchi qismda ularning nozik ovozlari erkaklarni hayajonga solganini kuzatdik. Xeyan davrida ayol nazokati eng muhimi bo`lib, oshiqalar visoli o`sha davrda yaratilgan adabiyotlarning bosh mavzusi ekanligini aniqladik.

(8)事が中に、なのめなるまじき人の後見の方は、もののあはれ知り過ぎ、はかなきついでの情けあり、をかしきに進める方なくともよかるべしと見えたるに、また、(9)まめまめしき筋を立てて耳挟みがちに美さうなき家刀自、ひとへにうちとけたる後見ばかりをして、朝夕の出で入りにつけても、公私の人のたたずまひ、善き悪しきことの、目にも耳にもとまるありさまを、疎き人に、わざとうちまねばむやは。近くて見む人の聞きわ

⁶⁰古典文学・源氏物語① 2004年、六三 p p Kotenbungaku Genji monogatari birinchi kitob,2004-yil, 63-bet

⁶¹ Muallif tarjimasi

き思ひ知るべからむに語りも合はせばやと、うちも笑まれ、涙もさしぐみ、もしは、あやなきおほやけ腹立たしく、心ひとつに思ひあまることなど多かるを、何にかは聞かせむと思へば、うちそむかれて、人知れぬ思ひ出で笑ひもせられ、「あはれ」とも、うち独りごたるるに、「何ごとぞ」など、あはつかにさし仰ぎみたらむは、いかがは口惜しからぬ。⁶²

(8)Turmush o`rtogi kelganda, uning kaifiyatiga qarab, uning kayfiyatini ko`tarinki holatga keltirish uchun astoydil harakat qilmasa ham bo`laveradi.(9) Uy ishlarini yaxshi qiladigan ayollar esa, sochini qulog`ini orqasiga yig`ib, bor ko`rkini ham ko`rsatib bera olishmaydi. Ya`ni uy ishlari bilan ovora husnsiz ayollar kategoriyasiga kiradi. Va agarda ayol kishining saviyasi past bo`lib, turmush o`rtog`i gapirayotgan mavzudan tushinchasi bo`lmasa, u ayol tomonga qaraging ham kelmaydi. Misol uchun, erkak o`tmishdagi bir-nimani eslab, «Aaa!» deb kulib yuborganida, ayol “Nima?” deb tursa u ayoldan nafratlana boshlayman.⁶³

Sakkizinchi qismda uy ishlarida yaxshi bo`lishiga qaramasdan o`zining ko`rinishiga e`tibor bermaydigan ayollar, turmush o`rtog`i kelganda hadeb kayfiyatini surishtirishi erkaklarni g`ashini keltirishi aniqlandi. To`qqizinchi qismda esa はみがち(kami-vamimihhasamigachi) deganda ayollar sochini qulog`ini orqasiga yig`ib qo`yilishi tushiniladi. Bu esa o`sha davr nazarida juda xunuk hisoblanganini aniqladik. Shuningdek ayol doimo turmush o`rtog`ining kayfiyatiga qarab muomala qilishi kerakligini tushundik. Ayolning dunyoqarashi turmush o`rtog`inikiga mos kelishi turmushning asosiy shartlardan biri bo`lgan.

(10)ただひたふるに子めきて柔らかならむ人を、とかくひきつくるひてはなどか見ざらむ。心もとなくとも、直し所ある心地すべし。げに、さし向ひて見むほどは、さてもらうたき方に罪ゆるし見るべきを、立ち離れてさるべきことをも言ひやり、(11)をりふしにし出でむわぎのあだ事にも

⁶²古典文学・源氏物語① 2004年、六三 p p Kotenbungaku Genji monogatari birinchi kitob,2004-yil, 63-bet

⁶³ Muallif tarjimasi

まめ事にも、わが心と思ひ得ることなく深きいたりなからむは、いと口惜しく頼もしげなき咎や、なほ苦しからむ。⁶⁴

*(10) Yosh bollalardek sodda boʻlgan ayolni turmush oʻrtogʻi sifatida oladigan boʻlsak, uning tarbiyasi bilan oʻzing shugʻullanishingga toʻgʻri keladi, bu insonga zavq bagʻishlaydi. Uning kamchiliklarining hammasini kechirishga majbursan. (11) Lekin uni oʻzini uy yumushlari bilan yolgʻiz qoldirsang u hech narsani eplay olmaydi. Unga oddiy narsalarni ham ishonolmaysan. Bundan faqat oʻzingga qiyin.*⁶⁵

Oʻninchi qismda ayol yosh boladek begʻuborlikga ega boʻlsa shuni oʻzi yetarli. Boshqa kamchiliklarini esa toʻldiruvchi erkak boʻlsa bas ekanligini tushingan boʻlsak, buning aksi boʻlib, 11-qismda aksincha “Bir narsani amalda ham ayol oʻzi eplayolmasa, bu uning katta kamchiligi” deyilgan.

(12)今は、ただ、品にもよらじ。容貌をばさらにも言はじ。いと口惜しくねぢけがましきおぼえだになくは、ただひとへにもものまめやかに、静かなる心のおもむきならむよるべをぞ、つひの頼み所には思ひおくべかりける。⁶⁶

*(12) Ishonchli turmush oʻrtogʻi sifatida faqat bir toifadagi ayollarni olishimiz mumkin. Ularning husni haqida gapirmasak ham boʻladi. Uning donoligi bosiqqligining oʻzi yetarli. U har qanday vaziyatda toʻgʻri qaror chiqara oladi, aynan mana shundaylar turmush qurishga loyiqdirlar.*⁶⁷

Oʻn ikkinchi qismda ayol kishining eng asosiy fazilati – bu oilasi ham koʻrki ham emas. Uning ochiqqligi, ogʻir-bosiqqligi eng chiroyli fazilat boʻlib, kelinlikga yaraydi. Ayolning fazilatlarini yaxshi boʻlib, uning ustiga iqtidorli va mehnatkash boʻlsa, bundan ortigʻini keragi ham yoʻq. Ogʻir-bosiq va begʻubor boʻlsa unga

⁶⁴ 古典文学・源氏物語① 2004年、六四 p p Kotonbungaku Genji monogatari birinchi kitob, 2004-yil, 64-bet

⁶⁵ Muallif tarjimasi

⁶⁶ 古典文学・源氏物語① 2004年、六五 p p Kotonbungaku Genji monogatari birinchi kitob, 2004-yil, 65-bet

⁶⁷ Muallif tarjimasi

tayanib ishonsa bo`ladi. Ya`ni ishonch – eng oliy shart. Ayol fazilatlari deganda aynan mana shu ishonch nazarda tutiladi.

Yuqorida aytib o`tilganlarni ikkiga bo`lsak bo`ladi : Ayolning yaxshi va yomon xususiyatlari:

Ayolning yaxshi xususiyatlari:

1. Xat yoza olishi. 【(1)(6)】
2. Xatga mos javob bera olishi. 【(1)】
3. Yuz va qomatlari, go`zalligi va yoshligi. 【(6)】
4. Kamgapligi va erkaklarni qiziqтира olishi. 【(6)】
5. Xatlarida uning bosiqлиги uфurib turishi. 【(6)(10)(12)】
6. Turmush o`rtogiga qaraganida uning kayfiyatidan xavotir olavemasligi 【(8)】
7. Yosh bola kabi beg`uborligi. 【(10)】
8. Qalbi tozaligi va ishonchliligi. 【(12)】
9. Bosiqлиги. 【(12)】

Ayolning yomon xususiyatlari:

1. O`zining qobliyatini bilib, boshqalarga mensimay qarashi. 【(2)】
2. Tarbiyasi yomonligi. 【(4)】
3. Haddan ziyod go`zallik. 【(7)】
4. Erining kayfiyatini hadeb surishtiraverishi. 【(8)】
5. Uy yumushlari bilan o`ziga qaramasligi. 【(9)】
6. Bitta o`zining qo`lidan hech nima kelmasligi . 【(11)】

Xulosa sifatida shuni ayta olamizki, xat yoza oladigan darajadagi ta`lim-tarbiyaga ega bo`lib, ko`rki go`zalligi va kamgapligi, bosiqлиги bilan erkakda

qiziqish tug`diradigan yaxshi fazilatlarga egaligi ayolning yaxshi tomoni ekanligi aniqlandi. Boshqalarni kamsitib, ustidan kulib, tarbiyasizlik ko`rsatish esa ayolning yomon tomoni ekanligi aniqlandi. Ammo bularning barchasi ma`lum darajadan, ya`ni me`yordan chiqib ketmasligi kerak. Aks holda fazilatlar ham yomon xususiyatlarga aylanib qoladi. Bundan ko`rinadiki, ideal ayol yuqorida aytib o`tilgan barcha xususiyatlarga ega bo`lishi lozim.

Bundan tashqari ayolning nafaqat o`zining xarakteri, balki vaziyatga qarab to`gri qaror topib harakat qila olish kabi qobiliyatlari ham nazarda tutiladi. O`rta pog`onadagi ayollar ochiq bo`lib Genjini juda ilhomlantiradi. Past tabaqali oilalarda ham yoqimtoy ayol borligi ham Genjining qiziqishini orttiradi.

“Genji monogatari”da bo`lib o`tgan suhbatga ko`ra o`sha davr yapon jamiyatida ayollar uch toifaga ajratilgan va ular orasida eng yaxshilarini tahlil qilish BMI ishimizning asosiy maqsadidir. O`rta tabaqaga misol sifatida Imperatorning mashuqasi Genji shahzodasining onasi Kiritsubo obrazini oldik. Zodagon ayollar ichidan Genji shahzodasining birinchi va abadiy muhabbati, shuningdek, nikohsiz bo`lgan farzandining onasi Fujitsubo obrazini oldik. Quyi tabaqaga misol sifatida Genji shahzodasining muhabbatini qozonolgan Yugao obrazini oldik.

2.2. O`rta tabaqa vakili Kiritsubo obrazi

Kiritsubo⁶⁸ romanda go`zallik timsoli sifatida madh etiladi. U haqiqiy Xeyan davrining ideal ayoli demakdir. Uni qancha ta`riflasa shuncha oz. U juda mehribon, tarbiyali, kamsuqum ayol bo`ladi.

Roman ham Kiritsuboning romanda shu ta`rifi bilan boshlanadi:

いづれの御時にか、女御、更衣あまたさぶらひたまひける中に、いとやむごとなき際にはあらぬが、優れて時めきたまふありけり。はじめより

⁶⁸ 桐壺 – Kiritsubo – Imperatorning mashuqasi, Genji shahzodasining onasi. Romanning birinchi bo`limi ham uning nomi bilan ataladi.

我はと思ひあがりたまへる御方々めざましきものにおとしめそねみたまふ。
同じほど、それより下臈の更衣たちはもしてやくらず。⁶⁹

Bir vaqtlar, bir imperatorning hukmdorligi davrida, saroyda ko'plab go'zal saroy ayollari yashar edi. Ularning ko'plari imperatorning iltifotiga sazovor bo'lgan edi, lekin Kirisubo ismli ayol hammasidan ko'proq iltifotga sazovor edi. Bu ayol aslzodalardan bo'lmaganligi sababli, uning raqibalari bu holga hech ham chiday olmasdilar va nima bo'lsa ham uni yakson qilishga urinar edilar. Bechora Kirisubo pirovard natijada turli tazyiqlar va ko'ngilsizliklar ostida so'na boshladi va borib-borib halok bo'ldi⁷⁰

U o'rta tabaqaga mansub bo'lishiga qaramasdan imperator muhabbatini qozonolgan. Imperatorga go'zallikda mukammal Genji nomli o'g'ilni dunyoga keltiradi. Avvallari imperator Kiritsuboga shunchaki ko'ngilxushlik nashidasi sifatida qarasa, endilikda u eng sevimli yorga aylanadi unga bo'lgan hurmati oshadi. Bundan alamzada imperatorning boshqa ayollari unga bosim o'tkazishadi. Saroyda yuqoriga intiluvchi ayollar tomonidan ko'p aziyat chekadi. Uni saroyda hech kim inson o'rnida ko'rmaydi, doimo saroy zodagon ayollari tomonidan haqoratlanadi. Shuning uchun ko'p vaqtini otasining uyida o'tkazishga majbur bo'ladi. Mana shunday bosimlar natijasida Kiritsuboning sog'lig'i yomonlashadi. Genji 3 yoshga to'lganida Kiritsuboning ahvoli yomonlashib dunyodan ko'z yumadi. Imperator bundan og'ir aziyat chekadi. Endi unga bu dunyoning qizig'i qolmagandek edi boshqa saroy ayollari ham Kiritsuboning o'rnini bosolmasdi. Romanda imperatorning g'am-qayg'ulari quyidagicha she'riy tarzda ta'riflangan:

『限りあらむ道にも後れ先だたじと契らせたまひけるを。さりともうち棄ててはへ行きやらじ。』⁷¹

O'lim ham bizni ajratolmaydi doimo birga bo'lamiz deb va'da berganding,

⁶⁹ 古典文学・源氏物語 ①一部分「桐壺」2004年一七p p。Kotenbungaku Genjimonogatari birinchi kitob birinchi bo'lim “Kiritsubo”2004-yil 17-bet

⁷⁰Muallif tarjimasi.

⁷¹ 古典文学・源氏物語 2004年二二p p。Kotenbungaku Genjimonogatari 2004-yil 22-bet

*Endi esa yolg`iz o`zimni tashlab kettingmi...*⁷²

Kiritsuboning o`limidan nafaqat imperator, balki saroy ahli ham junbushga keladi. Hattoki, o`sha kalondimoq ayollar ham unga achinadilar. Kiristubodan bu dunyoga yagona yodgorlik faqatgina farzandi Genji qoldi. Shuning uchun ham Imperator uchun farzandlari ichida eng sevimlisi Genji edi. Kiritsubo esa imperator yuragida abadiy yashab qoladi.

Biz bu obrazni Xeyan davri ayollariga xos noziklilik, go`zallilik, hamda nazokatlilikda tengi yo`q ayollar sirasiga qo`shishimiz mumkin. Murasaki Kiritsubo obrazi orqali Xeyan davri saroyidagi ayollarning yuqoriga intilish jangida xarob bo`ladigan o`rtahol, kamsuqum, beozor ayollarning ichki kechinmalarini tasvirlagani aniqlandi. Kiritsubo mana shunday qahrli urushlarning jabrlanuvchisi edi, xolos. Kiritsubodek o`rtahol ayollar Xeyan davri ideal ayoli sanaladi.

2.3. Yuqori tabaqa vakili Fujitsubo obrazi

Fujitsubo⁷³ — yana bir go`zallik nishonasi. Genjining birinchi muhabbati bo`lib, uning idealiga aylangan ayol hisoblanadi. Lekin bu muhabbat gunohkor edi. Fujitsubo imperatorning xotini bo`lib shu bilan birga Genjining o`gay onasi edi. Bunday muhabbat oshkor bo`lishi mumkin emas edi. Shuning uchun ham Genji umri davomida uchratkan ayollarida Fujitsuboga o`xshash qirralarini qidiradi.

Fujitsubo zodagonlar oilasidan bo`lib, Glitsiniy saroyidan kelgan malika edi. Kiritsubo vafotidan keyin Imperatorning muhabbatini qozona olgan yagona ayoldir. U juda chiroyli va yosh edi. Saroyda chiroyli ayollar ko`p bo`lishiga qaramasdan u go`zallikda yagona edi. Buning ustiga oqsuyaklardan bo`lgani uchun unga hech kim tenglasholmasdi.

⁷² Bu va keying yapon tilidan qilingan tarjimalar BMI muallifi tomonidan bajarilgan.

⁷³ 藤壺 – Fujitsubo – Glitsiniy saroy malikasi, Imperatorning mashuqasi, keyinchalik Imperatritsa bo`lgan.

「亡せたまひにし御息所の御容貌に似たまへる人を、三代の宮仕に伝はりぬるに、えみたてまつりつけぬを、後の宮の姫宮こそいとようおぼえて生ひい出させたまへりけれ。ありがたき御容貌人になん。」⁷⁴

Fujitsubo tashqi ko`rinishdan marhum Kiritsuboni eslatardi. Uning yuqori pog`onadan ekanligi esa atrofda gilarning ko`ziga chiroyiga yanada chiroy qo`shgandek tuyulardi.

Xeyan davridagi tabaqalanish jarayonini biz qissaning aynan shu parchasida yaqqol ko`rishimiz mumkin. Vaholanki, Fujitsuboning tashqi ko`rinishi Kiritsuboni eslatishiga qaramasdan, saroy ayollari uni e`zozlashgan, hurmat qilishgani ma`lum bo`ldi.

Genji muhabbati Fujitsuboga nisbatan juda yosh shakllangan edi. Fujitsubo ham juda yosh bo`lganligi sababli har ikkalasi bir-birini juda yaxshi tushinardi. Saroyda ulardan boshqa chiroyli tasvir yo`qdek edi go`yo. Ikkalasi ham kelib chiqishi aslzodalarga xos bo`lib, har ikkalasi ham Imperator uchun juda qadrli edi. Lekin u bunday ehtiromga noloyiq edi. Uning yuragi har doim Genjiga intilardi. Fujitsubo qanchalik sevgisini yashirin tutmasin, hissiyot oldida ojiz edi.

Genji juda yosh bo`lishiga qaramasdan o`zidan katta bo`lgan qizga uylantiriladi. Ikki tomonning kelishuvi asosida farzandlarini uylantirish ham Xeyan davrining an`analaridan biri edi. Genji oilali bo`lishiga qaramasdan doimo Fujitsuboni ko`rishga intiladi, unga son-sanoqsiz sevgi maktublarini bitadi.

源氏の君は、上の宮に召しまつはせば、心やすく里住みもえしたまはせば、心の中には、ただ、藤 壺の御ありさまをたぐひなしと思ひきこえて、さやうならむ人をこそ見め、似る人なくもおはしけるかな、大殿の君、

⁷⁴ 古典文学・源氏物語① 2004年四二 p p。Kotenbungaku Genjimonogatari birinchi kitob,2004-yil,42-bet

いとをかしげにかしづかれたる人とは見ゆれど、心にもつかずおぼえたまひて、いと若しきまでぞおはしける。⁷⁵

Genji imperator tomonidan saroyga chaqirilardi, uning yuragi ham saroy tomon oshiqardi, uning qalbida faqat bir obraz Fujitsubo obrazi mavjud edi. Xayollarida: “Qaniydi Fujitsuboga o`xshaydigani bo`lsa...”, degan orzu bo`lardi. Afsus, unga o`xshashi yo`q, “vazirni qizi ham chiroyli hamma unga parvona lekin unda ko`nglim yo`q” deb xo`rsinardi murg`akkina Genjining yuragi.

Demak Fujitsubo obrazi yuqori tabaqadagi ayollar orasida ideal ayol obrazi ekanligini ko`rsatib beradi. U o`zining go`zalligi, mukammal tarbiyasi, sirliligi, bilan Genjini o`ziga jalb etardi. Xeyan davrida sirli ayollar yetishib bo`lmaydigan muhabbat insonlarga o`zgacha qiziqish uyg`otardi. Genjining Fujitsuboga bo`lgan muhabbati yetishib bo`lmaydiga muhabbat timsoli ekanligi aniqlandi. Bu ham ayollarga o`zgacha chiroy bag`ishlashini aks ettirdi .

2.4. Quyi tabaqa vakili Yugao obrazi

Yugao⁷⁶ quyi tabaqaga qarashli ayol bo`lishiga qaramasdan, Genji shahzodasi muhabbatini qozona olgan. U juda ham nozik, beg`ubor, sodda ayol edi. Xeyan davrida quyi tabaqadagi ayol bilan muloqotda bo`lish insonlarni xayoliga ham kelmasdi. Lekin Genji shahzodasi fikricha, yuqori tabaqadagi ayollarda bo`lmagan nafosat ularda bo`lishi mumkin edi, go`yo. Yugaoning hayoti Genji shahzodasi uchun sirligicha qoladi. Chunki Yugao hech qachon o`zi haqida gapirmasdi aynan shuning uchun ham Genjining qiziqishi unga nisbatan beqiyos bo`lgan.

Yugao xaroba uyda yashardi. Genji shahzodasi boquvchisi Dayni betob bo`lib qolganini eshitib, undan xabar olishga boradi va to`sattan ko`zi xaroba bir uychaga tushadi. U yerdan qizlarning yoqimli ovozi eshilib turardi. Aynan shu uyda

⁷⁵ 古典文学・源氏物語① 2004年四九 p p。Kotenbungaku Genjimonogatari birinchi kitob,2004-yil,49-bet

⁷⁶ 夕顔－Yugao 19 yoshli oldin Tyudzyoning mashuqasi keyinchalik Genjining suyuklisiga aylangan. Tyudzyoning mashuqasi ekanligini sir tutgan. Yugao fojiali o`lim sababli dunyodan bevaqt ketadi.

Yugao o`zining kanizaklari bilan yashardi. Shu yerda Genji shahzodasining yana bir ishqiy sarguzashtlari boshlanadi.

「かの白く咲けるをなむ、夕顔と申しはべる。花の名は人めきて、かうあやし垣根になん咲きはべりける。」⁷⁷

U oppoq yashnab turgan gul nomi Yugao. Baland to`siqlar bilan to`silgan uydagi qizning ismi.

Demak, qissada Yugao obrazi oq gulga qiyoslanadi. U xuddi shu oq gulday pok ekanligi tasvirlanadi.

Bir-birlari haqida yaxshi bilmagan oshiqlar ancha payt uchrashib yurishadi. Genji Yugaoning oldiga oddiy inson qiyofasida keladi. Yugao uning shahzoda ekanligidan xabar topmagan bo`lsada, Genji zodagonlar oilasiga qarashli ekanligini taxmin qilardi.

今朝のほど昼間の隔てもおぼつかなくなど思ひわずはれれたまへば、かつは、いともの狂ほしく、さまで心とどむべき事のさまにもあらずといみじく思ひ冷ましたまふに、人のけはひ、いと浅ましくやはらかにおほどきて、もの深く重き方はおくれて、ひたぶるに若びたるものから世をまだ知らぬにもあらず、いとやむごとなきにはあるまじ、いずこにいとかうしもとまる心ぞとかへすがへす思す。⁷⁸

Tongda sevgilimdan ayrilarkanman, yana kech tushishini uning visoliga yetishishni intizorlik bilan kutaman, kun vaqtlari o`tishi juda sekin tuyuladi. Men qo`ldan kelgancha Yugaoga bo`lgan tuyg`ularimni o`zimdan sovutishni o`ylab, "To`xta!. Axir bu ayol shunday telbalikka loyiqmi?" deb savol beraman. Bu ayol shunchalik ojiza va sodda, ammo unga ehtimol ozgina donolik va o`ziga

⁷⁷古典文学・源氏物語①3部分「夕顔」 2004年一三六pp。Kotenbungaku Genjimonogatari birinchi kitob,uchinchi bo`lim "Yugao"2004-yil,136-bet

⁷⁸古典文学・源氏物語①3部分「夕顔」 2004年一五二～一五三pp。Kotenbungaku Genjimonogatari birinchi kitob,uchinchi bo`lim "Yugao"2004-yil,152~153-betlar

ishonch yetishmaydi. U ba`zida mutlaqo yosh tuyiladi, lekin uni ahmoq deb ham atash mumkin emas. Uning zodagonlar oilasiga qarashli ekanligi dargumon. “ Ammo. qanday qilib u shunchalik meni o`ziga maftun qila oldi?”- deb Genji shahzodasi to`xtamasdan o`ylardi.

Yugao shunchalik sodda, o`ziga ishonmagan qiz, buning ustiga quyi tabaqaga qarashli bo`lishiga qaramasdan Genji unga telbalarcha oshiq ekanligi aniqlandi. Uning aynan yosh bolalarcha beg`uborligi, soddaligi buning ustiga bosiqligi Genji shahzodasini o`ziga maftun qildi deb hisoblaymiz. Vaholanki, Genji shahzoda bo`lishiga qaramasdan o`zi yaxshi bilmaydigan Yugaoning xaroba uyiga oddiy odamlar singari piyoda kelishi insonni hayratlantiradi. Bu ham Yugaoning o`ziga xos chiroy, bundan tashqari yumshoq fe`l- atvor egasi ekanligidan dalolat beradi. Aynan shunday qiz har bir Xeyan davri erkaklarining yashirincha bo`lgan yuksak orzusi edi.

Qissada keltirilgan uch obraz Genji shahzodasi hayotida chuqur iz qoldirgan ayollar sirasiga kiradi. Shuningdek, bu uch obraz yuqorida keltirilgan “Yomg`irli tundagi suhbat” da ideal ayollar haqidagi mushohadalarda o`z aksini topgan. Bu obrazlarda “Yomg`irli tundagi suhbat” ida 12 qismga bo`lingan ayollarning hamma yaxshi jihatlari mavjud bo`lganligi aniqlandi.

O`rta tabaqa vakili Kiritsuboning kamgapligi, bosiqligi, qalbi tozaligi, shuningdek imperatorning ishonchini, mehrini qozona olganligi ayolning eng yaxshi xususiyatlaridan biri bo`lgani aniq bo`ldi. “Yomg`irli tundagi suhbat”da aynan mana shunday ayollar haqida o`zgacha hayajonda gap yuritiladi.

Yuqori tabaqa vakili Fujitsuboning go`zalligi, qaddi qomatining kelishganligi, uning xatlarida chiroyi sezilib turishi, bunga qaramasdan uning oqsuyaklardan ekanligi ham ayolning yaxshi xususiyatlardan biri bo`lib u ham bevosita “Yomg`irli tundagi suhbat” da ideal ayol haqidagi mushohadalarga butunlay to`g`ri kelishi ma`lum bo`ldi.

Quyida tabaqa vakili Yugaoning yosh bolalarga xos beg`uborligi, nozikligi, go`zalligi, bo`ysinuvchanligi bilan Genjini muhabbatini qozona olgani aniqlandi. U shu bilan birga kamgapligi bilan ham ajralib turgan.

“Yomg`irli tundagi suhbat”da Uma-no kamingning *“Aynan tanilmagan, sustroq uyda tarbiya topgan qizlar yoqimtoy bo`lishadi. Hozir yashayotgan uyi, oilasi uncha yaxshi bo`lmasada, ular o`zlarining yoqimtoyliligi bilan yuragimni olib qo`yishadi. Va ular bilan muloqotga kirishishga harakat qilaman”* deb quyi tabaqa vakili ayollari haqidagi ta`rifida biz aynan Yugaoga o`xshagan xususiyatga ega ayollar haqida ta`riflangani ma`lum bo`ldi.

XULOSA

Bitiruv malakaviy ishimizning tadqiqot obekti sifatida Murasaki Shikibuning “Genji-monogatari” qissasi tanlab olinib, Xeyan davrida ijtimoiy va adabiy muhitning ta`sirini o`rgangan holda ishimizning maqsadi bo`lmish ideal ayol obrazini ko`rib chiqishga harakat qilindi. Ishimiz yakunida quyidagi fikrga kelindi: “Genji-monogatari”ning yaratilgan davri uning mohiyatiga ulkan ta`sir ko`rsatgani ma`lum bo`ldi; Xeyan davri o`z mazmunidan kelib chiqib, “osoyishtalik” markazi deb nomlangani bejiz emasligini angladik; biz ikkilanmasdan Xeyan davri madaniyatning eng gullab-yashnagan davri bo`lib, adabiyot rivojiga ulkan hissa qo`shgan davr deb ayta olamiz.

1. Xeyan davrida adabiyot faqatgina zodagonlar orasida ravnaq topgan bo`lsada, IX-XII asrlar Xeyan davrida, balki, hozirgi kunga kelib ham o`z qiymatini yo`qotgani yo`qligini, o`sha davrda rivojlangan estetizm hozirgi Yaponiyaning poydevori hisoblanishiga amin bo`ldik.

2. Bu davrga kelib yaponlar Xitoy milliy an`analaridan vos kechib, yangi davlat barpo qilganlari “o`zlik”ni anglaganlari yapon tarixida yuksak yetuklik bo`ldi deb ayta olamiz. Ularning yapon milliy alifbosi “kana” ni ixtiro qilinishi

yapon adabiyoti durdonalari ya`ni monogatari larni dunyoga kelishiga sababchi bo`ldi. Xeyan davri adabiyotining yana bir ulkan yutuqlaridan biri shu asrning so`ngida badiiy qiymati, mazmuni nuqtai-nazaridan yapon adabiyotining gultoji bo`lgan “Genji monogatari” qissasi ham dunyo yuzini ko`rdi.

3. Xeyan davri ijodkorlari asosan his-tuyg`ular asosida ijod qilishgani aniq bo`ldi. Xeyan adabiyoti, asosan, hissiyot pog`onalari va unda “ayol” va “erkak” ning ishqiy sarguzashtlari, faoliyatlari asosida qurilgan bo`lib, xeyanliklar hayotida kuchli hissiyotli sevgi asosiy o`rin egallagani va albatta, shu bilan birga ayol roli muhim ahamiyat kasb etgani ma`lum bo`ldi.

4. Murasaki Shikibu hayotini o`rganar ekanmiz shuni xulosa qilib aytishimiz lozimki, uning hayoti bir tekisda bo`lmagani ma`lum bo`ladi. Uning boshidan og`ir kunlar ham o`tadi. Murasakining ijodining eng yuksak cho`qqisi uning saroyga ishga kirishi bilan bog`liq. U saroydagi ayollarning yuqoriga intilishlari uchun shafqatsiz kurashlar olib borishini o`z ko`zi bilan ko`rib “Genji-monogatari” qissasida Imperatorning sevimli mashuqasi Kiritsuboni saroy ayollari shafqatlilarcha yakson qilish jaroyonlarida yaqqol aks ettirganini ko`ramiz.

5. Ko`rinib turibdiki, Murasaki yozib qoldirgan asarlarning qiymati ortib borishi shunchaki bir tasodif emas. Buning ortida ham ajdodlardan meros bo`lib qolayotgan qobiliyat, ham yillar davomida yosh qizaloqqa ta`sir qilgan ziyolilar muhiti, ham ijodkorning o`z ustida izlanishi yotadi. Menimcha, Murasaki singari tom ma`nodagi kuchli ayollarning jamiyatda ko`payishi hozirgi zamon uchun ham foydadan holi bo`lmaydi.

6. Genji haqidagi hikoya avvalombor hayotga, hissiyotlar, ishqiy va oilaviy munosabatlarga taalluqli, u saroy turmushi va tabiatning o`zgaruvchan manzarasining yorqin fonida rivojlangani hamda Murasaki dil holati va tabiat holati orasidagi psixologik parallelizmni mohirona qo`llagani ma`lum bo`ldi.

7. “Genji-monogatari” qissasining “Yomg`irli tundagi suhbat” nomli bobida obrazlar orqali aynan Xeyan davri ideal ayollarning yaxshi va yomon xususiyatlari

haqida bo`lgan mushohada ekanligi ma`lum bo`ldi. Ushbu suhbatga ko`ra Xeyan davrida ayollar uch toifaga ajratilganlari aniqlandi.

8. Xulosa sifatida shuni ayta olamizki, xat yoza oladigan darajadagi ta`lim-tarbiyaga ega bo`lib, ko`rki go`zalligi va kamgapligi, bosiqligi bilan erkakda qiziqish tug`diradigan yaxshi fazilatlarga egaligi ayolning yaxshi tomoni ekanligi aniqlandi. Boshqalarni kamsitib, ustidan kulib, tarbiyasizlik ko`rsatish esa ayolning yomon tomoni ekanligi aniqlandi. Ammo bularning barchasi ma`lum darajadan, ya`ni me`yordan chiqib ketmasligi kerak. Aks holda fazilatlar ham yomon xususiyatlarga aylanib qoladi. Bundan ko`rinadiki, ideal ayol yuqorida aytib o`tilgan barcha yaxshi xususiyatlarga ega bo`lishi lozim.

9. Bitiruv malakaviy ishimizning bosh maqsadi sifatida “Genji-monogatari ” qissasidan olingan o`rta tabaqa vakili Kiritsubo, yuqori tabaqa vakili Fujitsubo, quyi tabaqa vakili Yugao obrazlarini tahlil qilganimiz bejiz emas. Biz aynan shu obrazlar orqali Xeyan davri ideal ayolning yaxshi xususiyatlarini ochib berishga harakat qildik.

10. Murasaki Kiritsubo obrazi orqali Xeyan davri saroyidagi ayollarning yuqoriga intilish jangida xarob bo`ladigan o`rtahol, kamsuqum, beozor ayollarning ichki kechinmalarini tasvirlagani aniqlandi.

11. Xeyan davrida sirli ayollar, yetishib bo`lmaydigan muhabbat insonlarga o`zgacha qiziqish uyg`otardi. Genjining Fujitsuboga bo`lgan muhabbati yetishib bo`lmaydigan muhabbat timsoli ekanligi aniqlandi. Bu ham ayollarga o`zgacha chiroy bag`ishlashini aks ettirdi .

12. Yugao shunchalik sodda, o`ziga ishonmagan qiz, buning ustiga quyi tabaqaga qarashli bo`lishiga qaramasdan Genji unga telbalarcha oshiq ekanligi aniqlandi. Uning aynan yosh bolalarcha beg`uborligi, soddaligi, buning ustiga bosiqligi Genji shahzodasini o`ziga maftun qildi deb hisoblaymiz. Aynan shunday qiz har bir Xeyan davri erkaklarining yashirincha bo`lgan yuksak orzusi edi.

13. “Genji-monogatari”da keltirilgan Xeyan davri ayollar obrazini o`rganib chiqib, shunga amin bo`ldikki, qissadagi ayollarning yaxshi xususiyatlari o`sha davr ideal ayoli hisoblanib qolmasdan, balki hozirgi zamon XXI asrda ham shunday xususiyatlarga ega ayollar har bir insonning yetuk orzusi hisoblanadi. Ayollarimiz “Yomg`irli tundagi suhbat” da erkaklar o`rtasida keltirilgan ideal ayol haqidagi mulohazalar, shuningdek tahlil qilingan obrazlar kabi beg`ubor, ochiq ko`ngil, nazokatli, dunyoqarashi keng, og`ir-bosiq, fe`l atvori yumshoq, shuningdek, doimo o`zlariga zeb berib yursalar ular har qanday insonni o`zlariga maftun qila oladilar. Shu bilan birga bunday xususiyatlarga ega ayollar ko`paysa, oilalar ham mustahkam bo`lib, jamiyat ham taraqqiy etadi deb o`ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov “Inson baxt uchun tug`iladi”. Toshkent. Sharq nashriyoti. 1998y.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov “O`zbekiston XXI asr bo`lag`asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. Toshkent. 1998y.

Asosiy adabiyotlar

Rus tilidagi adabiyotlar

1. Anarina. N.G. Tri stati o yaponskom mentalitete. Moskva, Mejdunarodniy sentr nauchnoy i texnicheskoy informasii, 1993.

2. Goreglyad V.N. Yaponskaya literatura VIII-XVIvv. Nachalo i razvitie tradisiy. Sankt-Peterburg, 1997

3. Goreglyad V.N. Yaponskaya dnevnikovaya i esseisticheskaya literatura X - XIII vv. Avtoref. dokt. dis. - L., 1974.

4. Goldberg D.I. Yaponiya v III-XII vv. – Istoriya stran zarubejnoj Azii v srednie veka. M., 1970.
5. Jukov Ye.M. Istoriya Yaponii. Kratkiy ocherk. M., 1974.
6. Zavadskaya Ye.V. Istoriya knijnogo iskusstva. M.: 1986
7. Konrad N.I. Drevnyaya istoriya Yaponii. – Konrad N.I. Izbranniy trudi. Istoriya. M., 1974.
8. Konrad N.I. Yaponskaya literatura v obrazax i ocherkax Tom I. Izdatelstvo Moskva “Nauka” 1991
9. Konrad N.I. Predislovie k Ise-monogatari // Ise-monogatari. Yaponskaya klassicheskaya povest nachala X veka / Predisl., per. s yap., issled. N.I. Konrada. S-Pb., 2000.
10. Konrad N.I. “Zapad i Vostok”. Stati M.: Nauka, 1966.
11. Makeyeva.E. Pridvornie dami epoxi Xeyan. Samara 2007
12. Murasaki Sikibu Povest o Gendzi V 4-x knigax per.s yap T.L Sokolovoy-Delyusinoy Moskva “Nauka” 1991
13. Murasaki Sikibu. Dnevnik /Per. s yapon. A.N. Мещерикова // Tisyacha juravley: Antologiya yaponskoy klassicheskoy literaturi VIII – XIX vv. SPb., 2005.
14. Murasaki Sikibu. Povest o Gendzi. Prilojenie /Vstup. st., per. s yap. T.L. Sokolovoy-Delyusinoy. – M., 1992
15. Paskov S.S. Yaponiya v rannee srednevekove VII – XII veka. Istoricheskie ocherki. M., 1987.
16. Sadokova A.R. Yaponskiy folklor (v kontekste mifologo-religioznix predstavleniy). M., 2001.

Yapon tilidagi adabiyotlar

17. 古典文学・源氏物語① (2004年) Kotenbungaku. Genji-monogatari.

18. 田中貴子『日本古典への招待：古典を楽しむ九つの方法』筑摩書房, 1996
19. 高木和子『平安文学でわかる恋の法則』筑摩書房, 2011
20. ドナルド・キーン『古典を楽しむ：私の日本文学』朝日新聞社, 1990
21. 山口仲美『日本語の古典』岩波書店, 2011
22. 小池清治『源氏物語』と『枕草子』：謎解き平安ミステリー、2008、新書
23. 岡崎 智子「平安時代の理想の女性像について—『源氏物語』から—」2006年。 Okazaki Tomokoning Xeyan davri ideal ayol obrazi nomli ilmiy ishi.2006-yil.
24. 藤沼貴「研究社和露辞典」2000株式会社研究社 T. Fudzinuma Yaponsko-Russkiy slovar. Izdatelstvo 《Kenkyusya》2000.

O`zbek tilidagi adabiyotlar

25. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. T.,Fan nashriyoti, 1976y.
26. X. Xomidiy Adabiyotshunoslik terminlari lug`ati. T.,O`qituvchi, 1970y.

Internet resurslari:

http://ru.wikipedia.org/wiki/Period_Xeyan

<http://ja.wikipedia.org/wiki/紫式部/>

<http://www.uji-genji.jp/>

<http://www.h2.dion.ne.jp/~miyawaki/Genji/tree.html>

<http://www.blogmura.com/profile/00824546.html>

<http://www.geocities.jp/youkohitori/genjimonogatari/genjijyosei.html>

www.liveinternet.ru/tags/murasaki+sikibu/

<http://feb-web.ru/feb/litenc/encyclp/le3/le3-3494.htm>

LUG‘AT

Genji-monogatari – Genji haqida hikoya

Monogatari – Biror nimani hikoya qilish degan ma`noni bildiradi.

Xeyan – Tinchlik va osoyishtalik

Mono-no aware – “mono” -bu “narsa” yoki “borliq” degan ma`nolarni bildirib , “aware”-“hayratlanish” degan ma`noda qo`llanib, birgalikda “borliqdan hayratlanish” degan ma`nolarni anglatadi.

Tanka – “qisqa ashula” degan ma`noni bildirib 31 bo`g`indan iborat lirik poema hisoblanadi.

Vaka – yapon milliy she`riy qo`shiqlariga aytilgan.

Rokkasen – “ abadiy otilik” Xeyan davriga oid olti buyuk shoirlar qalamiga mansub yapon qo`shiqlar to`plami.

Kokinsyu – yangi va qadimiy yapon she`rlarining termasi

Shikibu - Murasaki Shikibu otasining ismi Fujivara bo`lib, uning saroy ishlarida marosimlar tashkil etish bilan shug`ullangani bois ushbu taxallus berilgan.

Nyobo – imperator oilasidagi xonimlarga xizmat ko`rsatuvchi saroy xizmatchilari(ayollar lavozimi).

Nyogo – Imperatorga xizmat ko`rsatuvchi saroy xizmatchilari(ayollar lavozimi).

Tyudzyo – Bosh vazir lavozimi. BMIda bosh vazirning o`g`lining ismi Tyudzyo deb ko`rsatilgan. Qahramonlar saroydagi lavozimi bilan nomlangan.

Xidari-ni uma-no kami – saroydagi otlarga javobgar shaxs.

To-sikibu-no dzo – saroydagi marosimlarga javobgar shaxs.

